

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Achilov Obid Muzrobovich, Quvvatova Mohira
Hikmatullayevna, Toshtemirova Yulduz Karim qizi, Aliyeva
Bashorat Ergashovna, Saidova Feruza Akramovna**

ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PEDAGOGIKASI

(Amaliy mashg’ulotlar va testlar to‘plami)

O‘quv qo‘llanma

Denov - 2026

**Achilov Obid Muzrobovich, Quvvatova Mohira Hikmatullayevna
Toshtemirova Yulduz Karim qizi, Aliyeva Bashorat Ergashovna, Saidova
Feruza Akramovna**

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi [Matn] / O.M.Achilov. -
Toshkent, 2026. -132 b.

Mazkur “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” (amaliy mashg‘ulotlar va testlar to‘plami) fanidan tayyorlangan o‘quv qo‘llanma 60110200-Maktabgacha ta‘lim bakalavr ta‘lim yo‘nalishidagi talabalarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanadigan mutaxassislariga O‘zbekistondagi maktabgacha ta‘lim tizimini rivojlantirishda ta‘lim-tarbiya tizimining o‘ziga xos tomonlarini yetarlicha yoritishga harakat qilingan. Unda “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” fani yuzasidan amaliy hamda seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha darslarning texnologik model va xaritalari keltirilib o‘tilgan. Har bir amaliy mashg‘ulot mavzusi alohida-alohida kontekstda yoritilgan.

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 21.08.2025-yildagi 316-son buyruq asosida tasdiqlangan malaka talabi hamda O‘zbekiston respublikasi maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti tomonidan 29.08.2025- yilda ishlab chiqilgan “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” fanining o‘quv dasturi asosida tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

O.M.Achilov – DTPI “Maktabgacha ta‘lim” kafedrası mudiri

Taqrizchilar:

M.M.Berdiyeva - Termiz davlat pedagogika instituti
Maktabgacha ta‘lim kafedrası professori

D.M.Boboqulova - DTPI “Pedagogika va psixologiya”
kafedrası mudiri, p.f.b.f.d.(PhD), dotsent

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy, o‘rta maxsus va professional ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN:978-9910-5229-7-0

© Achilov O.M., 2026.

© “Innovative publication”, 2026.

KIRISH

Davlatimiz rahbarining «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz. Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz», degan ishonchi va da'vati bugun har bir ziyolining ish faoliyati uchun katta marralar sari yetaklovchi kuchga aylangan.

Mamlakatimizda ta'lim tizimiga shu asnod davlat siyosati darajasiga juda katta e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda barcha sohalarda bo'lgani kabi maktabgacha ta'lim sohasida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Hozirgi ta'lim islohotlari sharoitida barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, tizimni isloh qilish va yanada takomillashtirish vazifalari ijroga yo'naltirilgan. Uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida bolalarni muayyan bilimlarni egallashlari barobarida, ularni maktab ta'limiga tayyorlash, intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama kamolga yetkazish bugun har qachongidanda muhim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya faoliyatini bevosita tarbiyachilar amalga oshiradilar. Har bir ota-ona farzandini bilimdon, yuksak aqliy salohiyatli, ma'naviyatli pedagog-tarbiyachi qo'lida ta'lim-tarbiya olishini xohlaydi. Jamiyat va davlat talabi darajasidagi tarbiyachi-pedagoglarni yetishtirish pedagogika oliy o'quv yurtlarining "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi o'quv jarayoniga bog'liq. Mutaxassislik fani bo'lgan Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining nazariy asoslari va ta'lim-tarbiya berishning yangicha usullari bilan yosh mutaxassislarni qurollantirish dolzarb masalalardan biri. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi" fani orqali talabalar 3-7 yosh oralig'idagi bolalarni oilada va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya ishlari mazmuni, uslublari, uni tashkil etish shakllari va bolalarni maktabga tayyorlashning samarali usullarini bilib oladilar. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi" fani bo'yicha tayyorlangan ushbu qo'llanmada ana shu nazariy-metodologik asoslarga tayanilgan holda asosiy e'tibor – fan doirasidagi amaliy mashg'ulotlarning tashkil etilishiga qaratilgan bo'lib, unda fanning ilmiy tadqiqot metodlari, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tarbiyalash mazmuni, amaliy mashg'ulot mavzulari doirasida batafsil yoritib berilgan.

Mazkur qo'llanma 60110200-Maktabgacha ta'lim yo'nalishi bakalavr bosqichi talabalariga mutaxassislik fani doirasida bilimlarni kengaytirishga ko'mak berish bilan birga, yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlariga tayyorlanish uchun ham asosiy manba sifatida xizmat qiladi.



1-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR
PEDAGOGIKASINING UMUMIY ASOSLARI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining umumiy asoslari. 2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining predmeti va asosiy vazifalari. 3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining tadqiqot metodlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: 1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining fanlar tizimidagi o'rnini aniqlaydi. 2. Fanning tadqiqot metodlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	"Qanday" texnikasi, FMSU va Insert munozara texnologiyalari
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, electron doska, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, electron doska, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi bo'yicha klaster metodini qo'llab ko'rgazma tayyorlashni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

«Qanday» organayzerini to'ldiring



Muhim muammoning yechimini topishga yordam beradi va
“Qanday” savoli orqali muammo hal qilinadi.



FSMU texnologiyasi

Mazkur texnologiya munozara va bahsli masalalarni hal etishda hamda o'quv jarayonini munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq bahslashishga hamda shu bilan birga munozara madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilar avval o'zlariga tarqatilgan oddiy qog'ozga fikrlarini aniq va qisqa holda yozib, asoslovchi dalillar yoki inkor etuvchi faktlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikr bayoni

S – fikringiz bayoni uchun sabab keltiring

M – keltirib o'tgan sababni isbotlovchi dalil taqdim eting

U – fikringizni umumlashtiring

Jadvalni to'ldiring

Savol:	“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” fanini nega o‘zlashtirish zarur deb hisoblaysiz?
(F) Fikr bayoni	
(S) Fikr uchun sabab	
(M) Misol yoki isbotlovchi dalil	
(U) Umumlashtirish	

3-ilova

Insert usulidan foydalanib ishlash qoidasi

1. Ma’ruza matnini o‘qib, matnning chetiga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

- ✓ – bilaman;
- ✚ – men uchun yangi ma’lumot;
- ✗ – men bilgan ma’lumotni inkor qiladi;
- ❓ – noaniq (aniqlashtirish talab qiladigan) qo‘shimcha ma’lumot.

2. Olingan natijalarni jadval shaklida rasmiylashtiring.

Mavzu savollari	✓	✚	✗	❓
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				
7.				



Uyga topshiriq!

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” fanining tadqiqot metodlari bo‘yicha klaster metodini qo‘llab ko‘rgazma tayyorlash.



2-amaliy mashg'ulot: MAKTABGACHA TA'LIM TARIXI

Vaqti: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Yevropa pedagogikasida maktabgacha ta'limning rivojlanishi. 2. Qadimgi va o'rta asrlarda maktabgacha tarbiya g'oyalari. 3. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tarixi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Maktabgacha ta'lim tarixi haqida o'rganadi. 2. Tarix va bugun bilan solishtirgan holda fan haqida umumiy tushunchalarga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozara texnologiyasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Maktabgacha pedagogika" fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi bo'yicha klaster metodini qo'llab ko'rgazma tayyorlashni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Munozara qatnashchilariga eslatma!

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 daqiqa davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 daqiqa.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 daqiqa taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 daqiqa.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar (F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5):</i>				
mavzuga mos kelishi (1,5);				
mantiqiylik, aniqlik (0,5);				
xulosalarni qisqaligi (0,5);				
<i>Informatsion texnologiyalardan foydalanganligi (ko'rgazmalilik) – (0,9).</i>				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<i>Jami (4,0)</i>				
	Taqrizchilar (F.I.Sh.)			
<i>Ma'ruzaning tavsifi (2,4)</i>				
ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<i>Jami (3,0)</i>				
	Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.Sh.)			
<i>Asosiy savollar (4 ta beriladi)</i>				
har biri uchun (0,3)				
<i>Qo'shimcha savol (4 ta beriladi)</i>				
har biri uchun (0,3)				
<i>Mohiyati bo'yicha (0,6)</i>				
<i>Jami (3,0)</i>				



Uyga topshiriq!

Mavzuni konspektlashtiring va mavzuga oid har bir kihi kahoot programmasida 15 donadan elektronni test topshirig'ini tuzib kelish.



3-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR
PEDAGOGIKASINING FAN SIFATIDA
RIVOJLANISH BOSQICHLARI, MAKTABGACHA
TA'LIMNING TASHKIL TOPISHI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining fan sifatida shakllanishi 2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining rivojlanish bosqichlari 3. Qadimgi davrlarda bolalar tarbiyasi haqidagi pedagogik tasavvurlar
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining rivojlanish bosqichlarini o'rganadi. 2. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanish yo'nalishlarini aniqlaydi. 3. Qadimgi davrlarda bolalar tarbiyasi haqidagi pedagogik tasavvurlar haqida tanishib chiqadi
O'qitish uslubi va texnikasi	Baliq skeleti va "Esse" metodi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga "Baliq skeleti" va "Esse" usulidan foydalanish haqida izoh beradi, to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Skeletni to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Qadimgi davrlarda bolalar tarbiyasi haqidagi pedagogik tasavvurlar" rejasi asosida 5 ta tarixiy shaxsning pedagogik fikrlari yozish topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

BALIQ SKELETI



2-ilova

ESSE



Esse – taklif etilgan mavzuga 1000 dan 5000 gacha soʻz hajmidagi insho.

Esse – bu muallifning shaxsiy nuqtai nazarini yozma ravishda erkin ifoda etish shakli; qandaydir predmet boʻyicha umumiy yoki dastlabki dunyoqarashni oʻz ichiga oladi.

Besh daqiqalik esse

Besh daqiqali esse – oʻrganilayotgan mavzu boʻyicha olingan bilimlarni umumlashtirish, mushohada qilish maqsadida oʻquv mashgʻulotida oxirida 5 daqiqa oraligʻida olib boriladi.



Uyga topshiriq!

Mavzuni konspektlashtiring va maktabgacha taʼlimning tashkil topishiga katta hissa qoʻshgan 5 nafar tarixiy shaxslarining pedagogik fikrlari yozib keling.



4-amaliy mashg‘ulot:
MUSTAQILLIK YILLARIDA MAKTABGACHA
TA’LIM TIZIMIDA YANGICHA YONDASHUV.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O‘quv mashg‘ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo‘yicha amaliy mashg‘ulot
O‘quv mashg‘ulotining rejasi	1. Mustaqillikka erishgandan keying davrda maktabgacha ta’lim. 2. Maktabgacha ta’limning 2016-yildan keying yillardagi rivoji. 3. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun mohiyati.
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i>	Ma’ruza mashg‘uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o‘tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo‘yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko‘nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish.	O‘quv faoliyatining natijalari: Talaba: 1. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta’lim tizimi rivoji haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishadi. 2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonun mazmuni va mohiyati haqida ma’lumotga ega bo‘ladi.
O‘qitish uslubi va texnikasi	B/B/B, “Sinkveyn” va Venn diagrammasi texnologiyalari
O‘qitish vositalari	Ma’ruza matni, o‘quv qo‘llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O‘qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo‘yicha o‘qitish.
O‘qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta’minlangan, guruhda dars o‘tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umum ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning kamida 5 ta moddasini yozib, uning ahamiyatini sharhlaydi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

B/B/B texnikasini qo'llash qoidalar

Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'limi tizimi asosiy tushunchalari.

№	Mavzu savoli	Bilaman	Bilishni xohlayman	Bildim
1.				
2.				
3.				
4.				
5.				
6.				

2-ilova

“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi

Hozirgi davr didaktikasi rivojlanishning asosiy yo'nalishlari


Sinkveyn sxemasi:

- 1-qator – tushuncha;
- 2-qator – tushunchani tavsiflovchi 2 sifat;
- 3-qator – ushbu tushuncha vazifalari to'g'risidagi 3 ta fe'l;
- 4-qator – ushbu tushuncha mohiyati to'g'risidagi 4 so'zdan iborat so'z birikmasi;
- 5-qator – ushbu tushuncha sinonimi.

Sinkveyn metodi



Uzluksiz ta'lim tizimi bo'yicha Venn diagrammasini to'ldiring.



Uyga topshiriq!

“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonunning kamida 5 ta moddasini yozib, uning ahamiyatini sharhlang.

Havola: <https://lex.uz/docs/-4646908>



5-amaliy mashg'ulot:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING
"MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA
TO'G'RI SIDAGI QONUNI".

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonun"ning qabul qilinish zarurati. 2. Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari. 3. 2030-yilgacha maktabgacha ta'lim tizimida belgilangan istiqbollar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Maktabgacha ta'lim tizimi istiqbollari haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi. 2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori mazmuni va mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lishadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Savol-javob va test metodlari
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umum ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, baholaydi va rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni"ning mazmuni va mohiyatini yozib, uning ahamiyatini sharhlash.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

?

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fan sifatida qanday ijtimoiy ehtiyojlar asosida shakllangan?
2. Maktabgacha pedagogikaning tadqiqot obyekti va predmeti nimalardan iborat?
3. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasining rivojlanish bosqichlarini izohlang.
4. Qadimgi Sharq va G'arb mutafakkirlarining bolalar tarbiyasi haqidagi qarashlarining umumiy jihatlari nimalardan iborat?
5. Y.A. Komenskiy, J.J. Russo va F. Frebellarning maktabgacha ta'lim rivojiga qo'shgan hissasini tahlil qiling.
6. "Bolalar bog'chasi" tushunchasining paydo bo'lish sabablari va tarixiy ahamiyatini tushuntiring.
7. Ilk yosh davrining psixofiziologik xususiyatlari pedagogik jarayonga qanday ta'sir ko'rsatadi?
8. Maktabgacha ta'lim muassasalarining tashkil topishiga olib kelgan asosiy omillarni sanab bering.
9. XX asrda maktabgacha pedagogikaning fan sifatida rivojlanishiga qaysi ilmiy yo'nalishlar ta'sir ko'rsatgan?
10. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining shakllanish bosqichlarini tavsiflang.
11. Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmuni nimada?
12. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni" qabul qilinishining asosiy maqsadi nima?

?

Mavzu yuzasidan test topshiriqlari:

1. **Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fan sifatida nimani o'rganadi?**
 - A) Oliy ta'lim tizimini
 - B) Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim-tarbiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini
 - C) Kattalar psixologiyasini
 - D) Umumiy sotsiologiyani
2. **Maktabgacha pedagogika mustaqil fan sifatida qaysi davrda shakllana boshlagan?**
 - A) Qadimgi davrlarda
 - B) O'rta asrlarda
 - C) XIX asr oxiri – XX asr boshlarida
 - D) XXI asrda
3. **"Bolalar bog'chasi" tushunchasini ilmiy asosda kim joriy etgan?**
 - A) Y.A. Komenskiy
 - B) J.J. Russo
 - C) F. Frebel
 - D) K.D. Ushinskiy

4. Ilk yosh davri qaysi yosh oralig'ini qamrab oladi?

- A) 0–1 yosh
- B) 1–3 yosh
- C) 3–6 yosh
- D) 6–7 yosh

5. Maktabgacha ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi nimadan iborat?

- A) Faqat bilim berish
- B) Bolalarni maktabga tayyorlash va har tomonlama rivojlantirish
- C) Nazorat qilish
- D) Intizomni kuchaytirish

6. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonuni"ning asosiy maqsadi nima?

- A) Faqat nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash
- B) Maktabgacha ta'lim sohasini huquqiy jihatdan tartibga solish va rivojlantirish
- C) Oliy ta'limni nazorat qilish
- D) Harbiy tayyorgarlikni kuchaytirish

7. Qonunga ko'ra, maktabgacha ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi qaysi?

- A) Ta'lim xizmatlarini pullik qilish
- B) Bolalarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish
- C) Ta'limni faqat shaharlar bilan cheklash
- D) Nazoratni kamaytirish

8. Maktabgacha pedagogikaning asosiy kategoriyalariga qaysilar kiradi?

- A) Iqtisod, siyosat, huquq
- B) Ta'lim, tarbiya, rivojlanish
- C) Texnika va ishlab chiqarish
- D) Boshqaruv va menejment

9. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimi qaysi davrda jadal rivojlana boshladi?

- A) Qadimgi davrda
- B) O'rta asrlarda
- C) Mustaqillikdan keyin
- D) XIX asrda

10. Tarixiy pedagogik tajribani zamonaviy maktabgacha ta'limda qo'llashning ahamiyati nimada?

- A) Faqat nazariy bilim berishda
- B) Ta'lim jarayonini boyitish va samaradorligini oshirishda
- C) Eski usullarni qayta tiklashda
- D) Ta'limni cheklashda



Uyga topshiriq!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312-son Qarori mazmuni va mohiyatini yozib, uning ahamiyatini sharhlang.

Havola: <https://lex.uz/docs/-4327235>



6-amaliy mashg'ulot:
MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA KADRLARNI
TAYYORLASH VA SOHAGA QABUL QILISHGA
QO'YILGAN TALABLAR.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish. 2. Tarbiyachi va pedagoglarning jamiyatda tutgan o'rni. 3. Tarbiyachining faoliyatlar jarayonidagi kreativligi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Tarbiyachining pedagogik kreativ qobiliyatlari haqida tushunchalarga ega bo'ladilar hamda o'rganadilar. 2. Tarbiyachilarning jamiyatda tutgan o'rni haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. 3. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishida tarbiyachining tutgan o'rni haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Savol-javob va klister metodlari
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi. Baholash mezonlarini namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga "Klaster" usulidan foydalanish haqida izoh beradi, to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Klasterni to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Davlat o'quv dasturida kun tartibining ifodalanishi" mavzusida taqdimot yoki ko'rgazma tayyorlash va Davlat standarti haqida fikr yozish topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Klasterda maktabgacha ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan talablarni ifodalang.



2-ilova

Quyidagi qonun va qonunosti hujjatlar asosidagi eng asosiy yangiliklarni yozing.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda
“2017-2021 yillarda Maktabgacha ta'limni tizimini yanada
takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-2707-son Qarori

--

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi
“Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish
chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi
“O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi
faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-son Qarori

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi
“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi O‘RQ-595-son Qonuni

Yana sohaga oid 2 ta qaror va farmonlarni yozing, qisqa mazmunini yoriting.



Uyga topshiriq!

“Davlat o‘quv dasturida kun tartibining ifodalanishi” mavzusida taqdimot yoki ko‘rgazma tayyorlang va maktabgacha ta’lim tizimidagi kadrlarga qo‘yiladigan talabalar haqida fikrlaringizni yozing.

Havola: <https://lex.uz/ru/docs/-5179335>



7-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING YOSHGA DOIR PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING
BOLA SO'LOM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Bola tarbiyasi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar. 2. Bola tarbiyasi va rivojlanishida faoliyatning ahamiyati. 3. Faoliyat turlari va ularning ta'siri darajalarini qiyoslash.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Bola tarbiyasi va rivojlanishida faoliyatning ahamiyati haqida ma'lumotlarga ega bo'lishadi. 2. Faoliyat turlari va ularning ta'siri darajalari haqida bilib olishadi.
O'qitish uslubi va texnikasi	“Nima uchun?” chizmasi, Venn diagrammasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.


Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umum ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Bola shaxsi tarbiyasi va rivojida qaysi omil muhim?" mavzusida fikrnoma yozish va muhokama uchun tayyorlanish.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

«Nima uchun?» chizmasi



«Nima uchun?» chizmasini tuzish qoidalari


1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllardan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqlimi, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.

Savollar:

1. Bugungi kunda bolalar shaxsi shakllanishida tarbiyaning ahamiyati sust.
2. Maktabgacha ta'lim tizimida korrupsiya alomatlari mavjud.

2-ilova

Shaxs shakllanishidagi omillar bo'yicha Venn diagrammasini to'ldiring.



Uyga topshiriq!

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning yoshga doir pedagogik va psixologik xususiyatlari va ularning bola so'lom rivojlanishidagi ahamiyati” mavzusida fikrnoma yozish va muhokama uchun tayyorlanish.



8-amaliy mashg'ulot:
BOLA SHAXSINI RIVOJLANISH OMILLARI. SHAXS
RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1.Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar: irsiyat, muhit, ta'lim-tarbiya. 2.Shaxsni rivojlanishida tarbiyaning o'rni. 3.Bolani tarbiyalash va rivojlanishida faoliyatlarning o'rni.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Bolalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlaydi. 2. Rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar va ularning ta'sir darajasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Munozara texnologiyasi
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga munozara usuli bo'yicha ifodalangan jadval namoyish qiladi va ustunlarni to'ldirishni aytadi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida 10 dona test tuzish va turli yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar yozishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Munozara qatnashchilariga eslatma!

1. Munozara munosabatlar yig'indisi emas, balki muammo yechimi uslubiyatidan iborat.
2. Ko'p gapirmasdan, boshqalarning so'zlashiga imkon ber.
3. Maqsadga erishish yo'lida xissiyotlarinni jilovlab, batafsil o'ylagan holda so'zla.
4. Raqiblaring vaziyatini o'rganib, ularga xurmat bilan murojaat qil.
5. Raqiblaring tomonidan aytilgan fikrlarga tanqidiy va mulohazali yondash.
6. Munozara predmeti bo'yicha chetga chiqmagan holda to'g'ri yondashib gapir.

Muammoli seminarining boshqaruv dastaklari

Boshlovchi barcha vazifalarni o'ziga oladi – munozara bosqichlarini boshqarish, javoblarning asoslanishi va to'g'riligini tasdiqlash, qo'llangan termin va tushunchalarni aniqlash, munosabatlarni to'g'ri qo'llash va boshqalar. Taqdimotlarning taqsimotini to'g'ri boshqarish.

Taqrizchi – tomonlarning ma'ruzalarini yo'nalishlar bo'yicha belgilash va to'liq xarakterda baholash: dolzarbligi, ilmiy jihati, mantiqiyligi va masalalarning aniq qo'yilganligi, xulosalarning aniq ko'rsatilishi.

Raqib – qabul qilingan tadqiqot o'rtasida raqobatchilik jarayonini shakllantiradi. U faqatgina ma'ruzachining asosiy holatini tanqid qilish emas, shu bilan birgalikda, uning aytgan fikrlaridan zaif yoki hato tomonlarini topish hamda o'zining hal qiluvchi fikrlarini taklif qilishi ham mumkin.

Ekspert – barcha munozaralarning, jumladan, munozara qatnashchilari tomonidan aytilgan fikrlarning, qilingan xulosalarning, taklif va gipotezalarning mahsuldorligini baholaydi.

Munozara reglamentini o'tkazish tartibi

1. Boshlovchi ma'ruza mavzusi va ma'ruzachilarning taqdimotlarini e'lon qiladi.
2. Ma'ruza 5 daqiqa davom etadi.
3. Taqrizchi – 2 daqiqa.
4. Raqib – ma'ruza mavzusi bo'yicha fikrlarini 1-3 daqiqa taqdim etadi.
5. Jamoaviy muhokama – 5-10 daqiqa.

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari

Baholash ko'rsatkichlari va mezonlari (ballarda)	Munozara ishtirokchilari			
	Ma'ruzachilar (F.I.Sh.)			
	1	2	3	4
<i>Ma'ruzaning mazmuni (2,5):</i>				
mavzuga mos kelishi (1,5);				
mantiqiylik, aniqlik (0,5);				
xulosalarni qisqaligi (0,5);				
<i>Informatsion texnologiyalardan foydalanganligi (ko'rgazmalilik) – (0,9).</i>				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<i>Jami (4,0)</i>				
	Taqrizchilar (F.I.Sh.)			
<i>Ma'ruzaning tavsifi (2,4)</i>				
ma'ruzaning kuchli tomonlari aniqlash (1,2)				
ma'ruzaning zaif tomonlari aniqlash (1,2)				
<i>Reglament (0,6)</i>				
<i>Jami (3,0)</i>				
	Opponentlar, ishtirokchilar (F.I.Sh.)			
<i>Asosiy savollar (4 ta beriladi)</i>				
har biri uchun (0,3)				
<i>Qo'shimcha savol (4 ta beriladi)</i>				
har biri uchun (0,3)				
<i>Mohiyati bo'yicha (0,6)</i>				
<i>Jami (3,0)</i>				



Uyga topshiriq!

10 dona test tuzing va turli yoshdagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib keling.



9-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR
TA'LIM-TARBIYASI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'siri. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyati va mustaqil faoliyat turlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: 1. S Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiya turlari va ularning shaxs kamolotiga ta'sirlarini aniqlaydi. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarning mustaqil faoliyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida 5 ta buyuk shaxslarning tarbiya xususidagi fikrlari va tarbiya haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

Konspektlashtiring va yodda tuting.

BOLA SHAXSINI RIVOJLANTIRISHDA TARBIYANING ROLI

Tarbiya – inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya aniq maqsadlarga ko'zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo'lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

1. Tarbiya ta'sirida muhit ta'siri bera olmagan fazilatlar o'zlashtiriladi, ya'ni bilim, ma'lumot egallanadi.

2. Tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxsni kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

3. Tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini bartaraf etish mumkin.

4. Tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning hal qiluvchi roli ko'zi ojiz va kar bolalar uchun mo'ljallangan jamoat muassasalarida ayniqsa aniq namoyon bo'ladi. Bunday bolalar uchun ishlab chiqilgan tarbiya sistemasi ularni turmushga va mehnat faoliyatiga tayyorlashni ta'minlaydi.

Biroq tarbiya bola rivojlanishini jadallashtirmasligi uning biror tomonining ruhiy rivojlanishini sun'iy ravishda tezlashtirmasligi kerak. Shuning uchun maktabgacha tarbiya pedagogikasida bola shaxsini har tomonlama va uyg'un rivojlantirish, uning rivojlanishini boyitish maqsadi o'rtaga qo'yiladi (A.V.Zaporojes).

Bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli pedagogning ham yetakchilik rolini, uning har bir bola shaxsini shakllantirish uchun mas'uliyatini qaror toptiradi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko pedagogning roli va mas'uliyatini ta'kidlab shunday yozgan edi:

«Tarbiyaviy ta'sirning g'oyat qudratli ta'sir ko'rsata olishiga ishonchim komil. Agar odam yomon tarbiyalangan bo'lsa, bunda faqat tarbiyachilar aybdorligiga aminman. Agar bola yaxshi bo'lsa, buning uchun u tarbiyadan, o'z bolaligidan qarzdir».

Quyida keltirilgan maqollardan 5 tasiga izoh yozing.

Yapon xalqining dono fikrlari:

- ✓ Shubhalanishdan oldin yetti marotaba ishon.
- ✓ Qo'lingdan kelganicha harakat qil, qolganini taqdirga tashla.
- ✓ Odamlari kulgan uyga baxt keladi.
- ✓ G'alaba faqatgina raqibdan ko'ra 30 daqiqa ko'proq chidaganga nasib qiladi.

- ✓ Kulib turgan yuzga o‘q otmaydilar.
- ✓ Sovuq choy va sovub qolgan guruchga chidash mumkun. Ammo sovuq qarash va sovuq munosabatga emas!
- ✓ 10 yoshda mo‘jiza. 20 yoshda daho. 30 dan keyin oddiy odam.
- ✓ O‘ylab hal qil, hal qilgach o‘ylama!
- ✓ So‘rasang bir necha daqiqa uyalasan, bilmasang – bir umr.
- ✓ Benuqson vaza yomon ustaning qo‘lidan chiqmaydi.
- ✓ Chuqur ko‘llar sekin oqadi.



Uyga topshiriq!

5 ta buyuk shaxslarning tarbiya xususidagi fikrlari va tarbiya haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib kelish.
Fikrni yod oling.

**TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT – YO MAMOT.
YO NAJOT – YO HALOKAT. YO SAODAT – YO
FALOKAT MASALASIDIR**

[ABDULLA AVLONIY]

MANA.UZ




10-amaliy mashg'ulot:
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA
JISMONIY RIVOJLANISHGA QO'YILADIGAN
TALABLAR.

Vaqti: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Jismoniy tarbiya vositalariga umumiy xarakteristika: jismoniy mashqlar, tabiatning sog'lomlashtirish kuchlari, gigienik omillar. 2. Jismoniy mashqlar – jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi. 3. Jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni. 4. Jismoniy mashqlarning turkumlarga bo'linishi. 5. Jismoniy mashqlar texnikasi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Jismoniy tarbiya vositalariga umumiy xarakteristikasini aniqlaydi. 2. Jismoniy mashqlarning shakli va mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Gruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni shug'ullantirish mumkin bo'lgan sport turlarining bittasini tanlab, uning tarixini yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.



Oʻquv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tarnishing va konspektlashtiring.

2-ilova

Jismoniy salomatlik haqida 10 ta maqol toping va yozing.



Uyga topshiriq!

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni shugʻullantirish mumkin boʻlgan sport turlarining bittasini tanlab, uning tarixini yozing.



11-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA
AQLIY TARBIYA BERISH MAZMUNI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Aqliy tarbiya haqida tushuncha. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi. 3. Aqliy tarbiya vazifalari. 4. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishini aniqlaydi. 2. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning o'ziga xosligi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida Sharq allomalari va buyuk shaxslarning aqliy tarbiya xususidagi kamida 3 ta fikrini, F.Frebel hayoti va ijodi bilan tanishish va uning tuhfaalarini mohiyati haqida fikr yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishish va konspektlashtiring.

Aql – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir.

Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish.

Zardushtlik dinining muqaddas kitobi «Avesto»da ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilgan. Unda «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo, yaxshi o'qishni keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin» deyilgan.

Abu Ali Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok etishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich. Ikki xil fikrni idrok etish. Uchinchi bosqich. O'zlashtirilgan bilim, fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda u haqiqiy aql deyiladi.

Olim aqlni 3 bosqichga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin xali harflarni ham, yozishni ham bilmaydigan bolalarni nazarda tutgan.

Ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolalarning aqli tasavvur qilinadi.

Uchinchi bosqichda inson aql shakllarini va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Ibn Sino aql deganda insoning tug'ma iste'dodini, bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi.

Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo'ladi:

1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etish.
2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyat.

O'z davrining yirik ma'rifatparvarlaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidir».

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi.

Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lim-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergan.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalarini klasterda ifodalang.



Uyga topshiriq!

Aqliy tarbiya haqida Sharq allomalari qarashlaridan kamida 3 tasini yozing. Frebel sovg'alari bilan tanishing va izohlab keling.





12-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING SENSOR TARBIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Sensor tarbiyasi haqida tushuncha. 2. Sensor tarbiyasining vazifasi va mazmuni. 3. Sensor tarbiyasining usullari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Maktabgacha yoshdagi bolalarni sensor rivojlanishini aniqlaydi. 2. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ta'lim berishda sensor tarbiyaning ahamiyati haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich.	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv	1.1. Mavzuni

Kirish (10 minut)	natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida Sharq allomalari va buyuk shaxslarning sensor tarbiya xususidagi kamida 3 ta fikrini, F.Frebel hayoti va ijodi bilan tanishish va uning tuhfarini mohiyati haqida fikr yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishish va konspektlashtiring.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni tarbiyalashda hamda ularda tuyg'u, sezgi, idrok, sezish kabi qobiliyatlarini shakllantirishda sensor tarbiya muhim o'rin tutadi. Sensor tarbiyasi tevarak-atrofdagi borliqni bilish sezgi va idrokka asoslanadi. Demak, bola tasavvurining asosini bevosita sezish orkali idrok qilish mumkin. Bunday tasavvurlarning aniqligi, to'laligi, sensor jarayonlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Sensor tarbiyasi sezgi va idrokni biror maqsad asosida rivojlantirishdir.

«Sensor» so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, «sensus» - «tuyg'u», «sezgi», «idrok», «sezish qobiliyati» ma'nolarini anglatadi.

Demak, borliqni bilish avvalo sezish idrok qilishdan boshlanadi. Inson ko'rish, eshitish, anglash his kilish yordamida tevarak atrofdagi narsa va xodisalar to'g'risida bilimga ega bo'ladi. Insonda faqat shular asosidagina xotira, tafakkur, xayol kabi jarayonlar hosil bo'ladi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalar aqliy bilimining 9/10 qismini sezish orqali idrok etilgan taassurotlar tashkil etadi. Sezgi va idrok qanchalik boy bo'lsa, insonning atrofdagi olam haqidagi tasavvurlari shunchalik keng bo'ladi.

Bolalarning sensor madaniyati, unda sezgi va idrokning muvaffaqiyati uchun muhim shart-sharoit hisoblanadi.

Bolalarning aqliy, estetik, jismoniy va mehnat tarbiyasini shakllanishida sensor tarbiya muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa maktabgacha yosh davri sensor jarayonlarni rivojlantirish davri sanaladi. Shuning uchun bu davrda sensor tarbiya muhim o'rin tutadi. Sensor tarbiya bolalarda hissiy bilish qobiliyatlarini shakllantirishga sezgi idrokni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Sensor tarbiyaning mazmuni va metodi ruhshunoslik fanida idrok va sezgini rivojlantirish muammosi qanday talqin qilinishi bilan belgilanadi. Fanda bu muammoni hal etish turlicha yoritilgan. Pedagogika tarixida esa sensor tarbiyasining har xil sistemasi ko'rsatilgan.

O'tmishdagi pedagoglar F.Frebel, M.Montessori, O.Dekroli va boshqalar tomonidan yaratilgan sistema bolalarning qo'lidagi mayda muskullarini rivojlantirishga, rang va uning turlari, shakl va hajmi yuksak darajada farq qilishga erishishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Montessorining didaktik materiallari o'z-o'zini nazorat qilish prinsipiga muvofiq yaratilgan bo'lib, bolalarga pedagogning ishtirokisiz, mustaqil shug'ullanish imkonini berar edi. Yuqoridagi olimlar tomonidan ilgari surilgan ta'limot ayniqsa hozirgi ta'lim-tarbiya jarayonida keng qo'llanilmoqda. Bu usullardan foydalanish bolalarni har tomonlama ham aqliy ham jismoniy rivojlanishiga ularning ongi, aqli va hissiy tuyg'ularini shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois hozirgi kunda barcha maktabgacha tarbiya muassasalarida ushbu metodlardan keng qo'llanishga erishilmoqda. Buning uchun, barcha

tarbiyachilar mazkur metodlarni keng qo'llash maqsadida har bir guruh xonalarida alohida-alohida burchaklar tashkil etganlar.

Sezgi va idrok biror maqsadga qaratilgan mazmunli faoliyat jarayonida muvaffaqiyatli rivojlanadi.

Samarali faoliyat (rasm chizish, loy va plastilindan buyumlar, applekatsiyalar yasash) sezgi va idrokning rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratish bilan birga buyumning shaklini, rangini, joyini bilib olishga ehtiyoj paydo qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar butun yil davomida tabiat bilan tanishtirib boriladi. Ularga o'simliklarni, qushlarni, hayvonlarni parvarish qilish topshiriladi. Bu esa yer, quyosh issiqligining xususiyatlarini sezib bilib olish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. «oldinga», «orqaga», «tepada», «pastda», uzoq-yaqini «chapda, o'ngda» kabi fazoviy tasavvurlarni o'zlashtirib oladilar.

Bolalar ko'proq tabiat bilan aloqada bo'lishlari tufayli taassurotlari, eshitib ta'sirlanishi xususiyatlari ortib boradi. Bolalarni qushlarning sayrashi, barglarning shitirlashi, shamolning guvillashi, yomg'irning shatirlashi va momaqaldiroqning gumbirlashini diqqat bilan tinglashga o'rgatish zarur.

2-ilova

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga sensor tarbiya usullarini klasterda ifodalang.



Uyga topshiriq!

Bitta mashg'ulot loyihasini tuzing, u yerda **kamida 5 ta sezgi** ishtirok etsin.



13-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI
BOLALARNING AXLOQIY TARBIYASI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Axloqiy tarbiyaning nazariy asoslari. 2. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashning vazifasi. 3. Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari va metodlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalashning mohiyatini aniqlaydi. 2. Axloqiy tarbiyaning asosiy prinsiplari va metodlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.

	1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida "Axloqiy tarbiya" nomli kalit so'z asosida krossvord tuzib kelish.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishing va konspektlashtiring.

2-ilova

AXLOQNING ASOSIY PRINSIPLARI XUSUSIDA

Millatning muhim boyligi — xalqning ma'naviy qiyofasidir.

Nikolay Gavrilovich CHERNISHEVSKIY

Hayotdan uzib olingan axloq har qanday axloqiy mohiyatni yo'qotgan hayot yanglig' axloqsizdir.

Georgiy Valentinovich PLEXANOV

Taraqqiyotning chinakam belgisi – boylik yoki ta'lim darajasi emas, shaharning kattaligi emas, hosilning mo'l-ko'lligi ham emas, balki shu o'lka bag'rida tarbiya topgan inson qiyofasidir.

Ralf Uolda EMERSON

Odamlarga inson tabiati, tajribasi, idrokiga asoslangan insoniy axloq kerak.

Klod Adrian GELVETSIY

Tabiat inson qo'lga qurol – intellektual axloqiy kuch-qudratni berdi, lekin u bu qurolni aks tomonga xizmat qildirishi ham mumkin, binobarin, axloqiy e'tiqodi, jinsiy va did instinktlari pastkash bo'lgan odam eng nopok va vahshiy kimsaga aylanib qoladi.

ARASTU

Yaxshi kishilar yuksak axloqiy yetuklik va yuksak axloqiy obro' bilan ajralib turadilar.

Fyodor Mixaylovich DOSTOYEVSKIY

Insonning axloqiy tabiati uning jismoniy tabiatidan shu bilan ajralib turadiki, unda hech qanday absolyutlik yo'q: yurish-turish biron-bir hodisa tufayli yuzaga chiqadigan xarakterlar yoki g'oyalar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqador bo'ladi.

Onore De BALZAK

Donoga aqlsiz barcha axloqiy qoidalar behudadir.

Nikolay Ivanovich PIROGOV

Avvalo yaxshi axloqni, keyin donishmandlikni o'rgan, chunki axloqli bo'lmay turib, donishmand bo'lish amri mahol.

SENEKA

Vaqt, mehnat, halollik, bilim, o'zni qo'lga ola bilish, kishining jismoniy, aqliy va axloqiy qudrati – har qanday boylikning sababchisi mana shulardir.

Konstantin Dmitriyevich USHINSKIY

Kishi o'zini yaxshilik haqidagi va'zga emas, ezgu ishlar va fazilatlarga o'rgatmog'i kerak.

DEMOKRIT

Inson qanday bo'lishi haqida qachongacha jar solish mumkin, inson bo'lish vaqti ham kelgandir.

Mark AVRELIY

Axloqiy fazilatlar odamning niyatida aks etadi.

ARASTU

Bir o'zing xoli qolganda ham badxoh ishga qo'l urma, yomon so'z aytma. Boshqalarga qaraganda o'z-o'zingdan ko'proq istihola qilishni o'rgan.

DEMOKRIT

Ma'naviylik fe'l-atvorda mujassam bo'lmog'i kerak.

Immanuel KANT

Qayerda ulug'vor ma'naviy qiyofa bo'lmasa, u yerda ulug' odam ham yo'q.

Romen ROLLAN

Kishi qanchalik aqliy va axloqiy kamol topgan bo'lsa, u o'zini shunchalik ozod his qiladi, unga hayot shunchalik kulib boqadi.

Anton Pavlovich CHEXOV

O'rinli, axloqli va adolatli yashamay turib, yaxshi umr kechirib bo'lmaydi va aksincha, yaxshi umr kechirmay turib, o'rinli, axloqli va adolatli yashab bo'lmaydi.

EPIKUR

Inson axloqsizlikdan huzur-halovat topishi mumkin emas; faqat axloq va yaxshilik bilangina u oliy huzur-halovatga yetishadi.

Aleksandr Ivanovich GERTSEN

Idroklilik va axloqiylik hamisha bir-biriga muvofiq keladi.

Lev Nikolayevich TOLSTOY

Nimaki go'zal ekan – u axloqiydir.

Gyustav FLOBER

Yuqorida keltirilgan fikr mualliflarining istalgan 5 tasi haqida ma'lumot to'plang va fikrlarini tahlil qiling.

3-ilova

Konspektlashtiring.

Ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk, barkamol farzand voyaga yetkazish hamma davrlarda ham katta siyosiy mohiyat va ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot vaturmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Yoshlarni kamolga yetkazish ta'lim tizimida axloqiy va estetik bilimlar orqali amalga oshadi, ularning ijtimoiylashuvi esa insonni bevosita hayotga va voqelikka yaqinlashtiradi. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan kishilik madaniyatining,

xususan axloqiy-estetik madaniyatning o'zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yoshlarni estetik tarbiyasi muhim hisoblanadi.



Uyga topshiriq!

Axloqiy tarbiya xususida krossvord tayyorlang hamda mavzuni konspektlashtirib keling.





14-amaliy mashg'ulot:
JAMOA-SHAXS AXLOQIY KAMOLOTINING ASOSI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. MTTda mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. 2. MTTdagi mehnat tarbiyasining mazmuni. 3. MTTda bolalar mehnatini rejalashtirish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. MTTda mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini aniqlaydi. 2. MTTdagi mehnat tarbiyasining mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlarini yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishing va mavzuni konspektlashtiring.

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri rahbarlik qilingandagina etarli natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib chiqilgan.

Bolalar mehnatining muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan – stolga, stoldan – mashinaga ko'chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkaftga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. «Qatnov» bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi.

Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar.

Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar.

Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini tahminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishi lozim.

Shunday qilib, butun bog'cha yoshi davrida mehnat va o'yin o'zaro bog'liq xolda kechadi, biroq har qanday xolda ham bolalar mehnatini o'yinga aylantirish, ularning farqini ishlab chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta'sirida asta-sekin bolalar mehnati o'z vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi.

Mehnatda uning beradigan samarasi faoliyatning majburiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mehnat natijasiga bolalarda mehnatga xavas hissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik omil deb qarash kerak.

Mehnatda natijaga erishishda, mehnat malakalarini shakllantirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining bahosi va o'ziga-o'zi baho berish katta

ahamiyatga ega. Bolalar yasagan buyumlari o'yin va mashg'ulotlarda qo'llanilsa, ular o'zlari yasayotgan buyumlar yanada sifatli bo'lishiga intiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan mehnat sabablari ham o'zgarib boradi. Mutaxassislarining olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ular kattalardan mehnatning ijtimoiy sababini ancha erta o'zlashtirib olar ekanlar.

Lekin ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o'z mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravishda bilib oladilar. Masalan, onalar va buvilar uchun 8-martga sovg'a tayyorlash, kichiq guruh bolalari maydonchasini yig'ishtirishga yordamlashish, yirtilgan kitoblarni yamab berish, kontsert va teatr qo'yib berish va boshqalar bolalardi mehnatning muayyan natijasiga intilish uyg'otadi, faoliyatning ijtimoiy sabablarini anglatib, mehnatga xavasini, ishni bajarishda bolalarning o'z oldilariga qo'yadigan talablarini oshiradi.

V.I.Loginovaning olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak ekan:

1. Mehnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi: maqsad – mehnat tasviri.

2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab (ajratib) olish.

3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab (ajratib) olish.

4. Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

Bu sistemani quyidagi sxemada keltirish mumkin: maqsad, mehnatni tanlash, materialni tanlash, mehnat faoliyati – mehnat quroli, mehnat natijasi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Pedagog rahbarligida mehnatning ijtimoiy sabablarini hamma muhim tomonlari shakllanadi. Kattalar mehnati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilib olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir.

O'yin jarayonidagi biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, masalan, barglarni zambillarda tashishadi, mashinalarda yurishadi.

Shu bilan birga o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko'ra mehnat va o'yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijasiga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O'yinda mehnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi, ammo u mehnat singari bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular o'zlarida qoniqish xissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'ylaganini rivojlantirishi etakchi rolni o'ynaydi, mehnatda esa natijaga erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlanishidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa albatta ko'zlangan natijaga erishiladi.

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu

kichik bolalar uchun ancha mashaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi («Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» va shularga o'xshashlar). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar.

Sekin-asta o'z-o'ziga xizmat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi.

2-ilova

Mavzu yuzasidan 5 ta test tuzing.



Uyga topshiriq!

Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlarini yozib keling.



15-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI
ESTETIK (NAFOSAT) TARBIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. "Estetika" tushunchasining mohiyati. 2. Estetik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari, vositalari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. "Estetika" tushunchasining mohiyatini aniqlaydi. 2. Estetik tarbiyaning maqsadi, vazifalari, mazmuni, tamoyillari, shakllari, metodlari, vositalari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.

	1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e’lon qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo’ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o’quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o’quv materiallari (ma’ruza matni, o’quv qo’llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Gruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e’lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e’tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to’g’rilydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O’quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to’ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to’ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg’ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag’batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida “Axloqiy tarbiya” nomli kalit so’z asosida krossvord tuzib kelish va “Musiqaning shaxs estetik tarbiyasidagi o’rni” mavzusida esse yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O’quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishing va konspektlashtiring.

2-ilova

Konspektlashtiring.

Ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk, barkamol farzand voyaga yetkazish hamma davrlarda ham katta siyosiy mohiyat va ahamiyat kasb etib kelgan. Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot vaturmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir.

Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi.

Yoshlarni kamolga yetkazish ta'lim tizimida axloqiy va estetik bilimlar orqali amalga oshadi, ularning ijtimoiylashuvi esa insonni bevosita hayotga va voqelikka yaqinlashtiradi. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan axloqiy-estetik madaniyatning o'zlashtirib borilishi jarayoni sifatida ham talqin etilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan o'sib kelayotgan yoshlarni estetik tarbiyasi muhim hisoblanadi.

Estetik tarbiyaning vazifalari tarbiyaning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, bolalarning yosh imkoniyatlariga qarab belgilanadi. Estetik tarbiya oldida quyidagi vazifalar turadi:

1. Bolalarni hayotdagi, voqelikdagi go'zallikni tushunishga, sevishtga, tabiatda va turmushda, yaratuvchilik mehnatida, ijtimoiy hayotda, kishilar xatti-harakatida bolalarga tushunarli bo'lgan go'zalliklarni ko'ra bilishga o'rgatish. Ularda estetik his, estetik did, estetik munosabatni tarbiyalash, kuchlari yetganicha hayotda go'zallik yaratishda faol ishtirok etish istagini tarbiyalash.

2. Bolalarni badiiy ijodning turli janrlarida (badiiy asar, musiqa, qo'shiq, rasm va boshqalar) yaratilgan san'at asarlarini ko'rish, tushunish va sevishtga o'rgatish orqali ularda estetik ong qirralarini shakllantirish; chiroylini xunukdan, g'amginlikni xursandchilikdan farqlay olish; ranglarni, shakl, tovushlarni birbiridan ajrata olish kabi sensor etalonlar bilan tanishtirish.

3. Bolani san'atning turli sohaları: ashula, o'yin, she'r o'qish, qayta hikoya qilish, ijodiy faoliyat (ijodiy o'yin, hikoya qilib, rasm chizish, biror narsa yasash yoki qurish) kabilarda yanada faolroq harakat qilish va o'zini ko'rsata bilishga o'rgatish. Bular orqali bolalarda badiiy ijodiy qobiliyatni, xayolni o'stirish, fazoviy va rang munosabatlarini, mo'ljalga olish, ko'rish xotirasi, qo'llarni chaqqon harakat qildirish malakasi, jo'shqin kayfiyatni ko'rsatuvchi hissiy sezgirlikni rivojlantirish va h.k.

Yuqorida ko'rsatilgan vazifalar asosida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning har bir yosh guruhlarida estetik tarbiya berishning mazmuni va metodlari ishlab chiqiladi.

Estetik tarbiyaning mazmuni bolaning estetik faoliyati orqali amalga oshiriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarni, estetik hissiyot, qiziqish, estetik ehtiyoj, estetik did va mulohazalarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Bular quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- o'yin, mehnat jarayonida, maishiy faoliyatda ijtimoiy va tabiat voqealari bilan tanishtirish orqali tevarak-atrofdagi borliqqa nisbatan estetik munosabatni tarbiyalash;

- san'at asarlari (badiiy tarbiya) vositasida estetik tarbiya berish. Pedagogika fanida bolalarni chizishga, loy va plastilindan narsalar yasashga, ashula aytishga va shunga o'xshashlarga o'rgatish metodikasi mukammal ishlab chiqilgan.

Bola ijodining mazmuniga ta'sir etadigan asosiy vosita, bolani hayajonlantiradigan, uning xayol va hislariga ta'sir etuvchi narsa tevarak-atrofdagi yorqin, jonli taassurotlardir.

Badiiy faoliyatning hamma turlarida ham ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish estetik idrok va hislarni rivojlantirish bilan bog'liq holda olib boriladi. Agar bola qishki tabiatning go'zalligini his eta olsa, u albatta shu go'zallikni rasmda, hikoyasida aks ettiradi. Agar bola badiiy adabiyotlardagi obrazlarni idrok eta olsa, undagi qahramonlar bola tushunchasiga yaqin bo'lsa, bunday kitoblar bolalar o'yini uchun kerakdir.

Bolalarga estetik zavq uyg'otish uchun ularga kuzatilayotgan narsaning mazmuni va ahamiyatini tushuntirish kerak. Bola-larning hislariga ta'sir etish uchun bu hali yetarli emas. Eng muhimi, bu yerda kattalarning namunasidir. Tarbiyachining o'zi zavqlansa, ortiqcha so'zlarsiz go'zallikka qiziqish uyg'ota oladi va bolalarda estetik kechinmalar paydo qila oladi.

Bolalar tarbiyachidan «Nima uchun oltin kuz deyiladi?»- deb so'rashadi, tarbiyachi istirohat bog'iga borib ko'ramiz, deb javob beradi. Bog'ta borishganda bolalarga taklif etadi: «Sayr qilib daraxtlarni, yo'lkalarni kuzatamiz». Bog'ning eng xushmanzara joyiga kelganda bolalar to'xtab, jim atrofga nazar tashlashadida, nima uchun oltin kuzligini tushundik. Chunki barglar tillaga o'xshaydi. «Ana qizil barglar», deyi-shadi ular hayajon bilan. Shamol bo'lishi bilan barglar yerga tushadi. yo'lklar esa gilamga o'xshaydi.

Ko'chaga sayrga chiqishadi. Tarbiyachi bolalarga shunday deydi: «Biz hozir sizlar bilan bog'cha ko'chasidan yurib o'tamiz. Sizlar diqqat bilan kuzatib boringlar, kim qanday chiroyli narsa ko'rsa, sayrdan keyin so'zlab beradi».

Shuni ta'kidlash kerakki, ajoyibot yonimizdadir, bolalarni shu ajoyibotni ko'ra bilishga, undan hayratlana olishga o'rgatish lozim. Tabiatning go'zalligini va ajoyibligini inson hayot go'zalligiga, san'at go'zalligi va ajoyibotiga aylantiradi.

Jonajon tabiat estetik tarbiyaning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi. Tevarak-atrofdagi tabiat go'zalligi hatto eng kichik bolani ham quvontiradi. Uning tuyg'ular va xayollarda saqlangan go'zalligi bolalikda ayniqsa yorqin va chuqur idrok qilinadi, inson bularni butun hayoti davomida esidan chiqarmaydi.

Sayr, ekskursiya vaqtida tarbiyachi bolalarning diqqatini tabiatning rangbarangligiga, uning o'zgarishi va uyg'unligiga qaratadi, tabiat hodisalariga qiziqish uyg'otadi, unga muhabbat va ehtiyotkorlik munosabatini tarbiyalaydi, asrab-avaylashga o'rgatadi. Bularning hammasi bolalarning estetik didlarini tarbiyalaydi, ular kishilarning mehnat natijalarini yaqqol ko'rib, atrofdagi go'zallik inson mehnati tufayli yuzaga kelishiga ishonch hosil qiladilar.

Musiqqa bolalarning kayfiyatini ko'tarib ertalabki badan tarbiyada yangray boshlaydi. Yilning quruq va issiq vaqtlarida ekskursiya, sayr va o'yin vaqtlarida ashulalar ijro etilishi kerak, bu bolalarni yanada bir-biriga yaqinlashtiradi, ruhini ko'taradi. Maydonchada mehnat qilish jarayonida ijro etilgan ashula harakat ritmini uyg'unlashtiradi, bolalarga mehnat quvonchini bag'ishlaydi.

Bolalarda estetik idrokning rivojlanishi uchun ularni haqiqiy san'at asarlari bilan tanishtirish zarur. Radio, oynai jahonda san'at ustalari va tengdoshlari ijro etgan asarlar bolalarning estetik rivojlanishida katta yordam beradi.

Ashula aytib o'yinga tushishda asosan xalq ijodi asarlaridan foydalaniladi, bu bolalarni ahloqiy-estetik tarbiyalash uchun g'oyat qimmatli vositadir. Bolalar xalq kuylari va obrazlarini ijro etayotib, xalq tili va kuyining hamohangligini, ravonligini bilib oladilar. Bu bolalarda vatanparvarlik hislarini tarbiyalaydi, musiqaviy didini shakllantiradi, bolalarni zamonaviy va klassik kuylarni idrok eta olishga tayyorlaydi. Ashula va raqsga tushishga o'rgatishda faqat to'g'ri aytish va to'g'ri harakat qilishni emas, balki ifodali aytish va yengil, chiroyli va latofat bilan raqsga tushishga o'rgatiladi.


Bolalarning badiiy qobiliyatlarini tarbiyalash masalasi ularning ijodiy o'sishi bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun bolaga o'rgatish, undagi ijodiy tashabbusni rivojlantirish ishi bir-biri bilan uzviy aloqada amalga oshirilishi lozim.

Pedagog tarbiyaviy nuqtai nazardan yondashib, bola ijodining eng birinchi, hali to'liq namoyon bo'lmagan tomonini seza bilishi va baholay olishi kerak, bu bilan u boladagi kamolot yo'lini to'g'ri belgilashi mumkin.

MTTda o'tkaziladigan bayramlar bolalarga chuqur ta'sir etadi. Bayramning tarbiyaviy kuchi va o'ziga xosligi uning g'oyaviy va estetik mazmuni san'atning turli ko'rinishlari bilan bog'liq bo'lishidadir. Har qaysi bayram o'z g'oyasiga ega bo'lib, u bolalarga yorqin obrazlar orqali ta'sir ko'rsatadi.

Demak, estetik tarbiyaning vositalaridan biri qo'g'irchoq teatridir. Uning nihoyatda kuchli ta'sir etishi uning soddaligi, odatdan tashqari jo'shqinligi va qo'g'irchoqligi (o'yinchoqligi), shuningdek, badiiy so'z, musiqa, ashula, raqs, tasviriy san'at kabi tarkibiy qismlarning uzviy jipslashib ketganligi kishi ko'zi o'ngida yaqqol namoyon bo'lishidadir. Qo'g'irchoq teatrini bolalar faqat tomosha qilibgina qolmay, balki unda o'zlari ham qatnashadilar. Bu bolaning dramatic qobiliyati, tashabbusi, nutqini o'stiradi, hayotiga quvonch bag'ishlaydi.

Kichkintoylar, ayniqsa 2-3 yoshli bolalar uchun chiqarilgan kitoblarda so'zlardan ko'ra rasmlarning ta'siri ayniqsa qatta bo'ladi. Bola kitobdagi rasmlarni qaytaqayta o'z o'rtoqlariga, kattalarga, qo'g'irchog'iga «o'qib» berish bilan uning mazmunini o'z xotirasida mustahkamlaydi. Kitobdagi chiroyli, yorqin rasmlar bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Qattalar mehnati, qahramonlik, shuningdek, ona Vatanga bo'lgan muhabbat, do'stlik, birodarlik, bolalarning ota-onalariga nisbatan mehribon bo'lishlari kabi mavzularda yozilgan hikoyalar bolalarga tushunarlidir.



4-ilova

Go‘zallikka intilish haqida, qalbni go‘zallashtirish haqida Sharq va G‘arb namoyondalarining 5 ta aforizmini to‘plang va fikrlarini tahlil qiling.



Uyga topshiriq!

Axloqiy tarbiya xususida krossvord tayyorlang va “Musiqaning shaxs estetik tarbiyasidagi o‘rni” mavzusida esse yozib keling.



16-amaliy mashg'ulot:
ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI
MEHNAT TARBIYASI

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. MTTda mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. 2. MTTdagi mehnat tarbiyasining mazmuni. 3. MTTda bolalar mehnatini rejalashtirish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: 1. MTTda mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalarini aniqlaydi. 2. MTTdagi mehnat tarbiyasining mazmuni haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlarini yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishish va mavzuni konspektlashtiring.

Yosh avlodga mehnat tarbiyasi berish masalasi hozirgi davrda eng dolzarb mavzu hisoblanadi. Mehnat har bir kishi kamolotida va umuman jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Bog'cha yoshidagi bolalarni jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik tomondan tarbiyalashda mehnat tarbiyasi muhim ahamiyatga egadir. Mehnat har bir yosh guruhidagi bolalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib tashkil etiladi, unga to'g'ri rahbarlik qilingandagina etarli natijaga erishish mumkin.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar mehnatining o'ziga xos tomonlari ko'pgina olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda keng o'rganib chiqilgan.

Bolalar mehnatining muhim belgisi uning ma'lum maqsadga qaratilganligidir. Kichik bog'cha yoshidagi bolalarning mehnati biror jarayonga oid harakat bo'lib, u faqat kattalarning rahbarligi natijasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Bola kubiklarni bir joydan ikkinchi joyga, mashinadan – stolga, stoldan – mashinaga ko'chiradi va hokazo. Tarbiyachi boshqa stol ustidagi kubiklarni ko'rsatib, uni mashinada ortib olib borish kerakligini aytadi. Bola kubiklarni mashinasida shkaftga tashiy boshlaydi va joyiga tartibli qilib joylab qo'ya boshlaydi. «Qatnov» bir necha marta takrorlanib, barcha kubiklar joyiga yig'ishtirib qo'yiladi. Bolalar faoliyatida maqsad paydo bo'ladi. Keyingi galda bolaning o'zi o'ynayotgan o'rtoqlariga o'ynab bo'lgandan keyin o'yinchoqlarni mashinada joyiga olib borib qo'yishni aytadi.

Katta guruh bolalarida mustaqil maqsad qo'yish qobiliyati moddiy samara beradigan mehnat turlarida muvaffaqiyatli rivojlanadi: gulzorda, ekinzorda ishlash, o'yinchoqlar yasash va boshqalar.

Faoliyatni rejalashtirish mehnat tarbiyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bolalarni kuzatish ular faoliyatining tartibsiz, rejasiz ekanligini ko'rsatadi. Bolalar bunday harakatlar orqali biror natijaga erishish uchun juda ko'p vaqt va kuch sarflaydilar, shu bilan bir vaqtda o'z ishlaridan o'zlari qoniqmaydilar.

Tarbiyachi bolalarni o'z faoliyatlarini tahminiy rejalashtirib olishlariga o'rgatish va ular faoliyatiga rahbarlik qilishi lozim.

Shunday qilib, butun bog'cha yoshi davrida mehnat va o'yin o'zaro bog'liq xolda kechadi, biroq har qanday xolda ham bolalar mehnatini o'yinga aylantirish, ularning farqini ishlab chiqarish noto'g'ri bo'lar edi. Tarbiyachilar va ota-onalar ta'sirida asta-sekin bolalar mehnati o'z vazifasi, mazmuni, metodi va tashkil etilishi bilan mustaqil faoliyat sifatida ajratib boriladi.

Mehnatda uning beradigan samarasi faoliyatning majburiy, tarkibiy qismi hisoblanadi. Ammo bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishda mehnat natijasiga bolalarda mehnatga xavas hissini tarbiyalash uchun yordam beradigan pedagogik omil deb qarash kerak.

Mehnatda natijaga erishishda, mehnat malakalarini shakllantirishda pedagogning va bolalar o'rtoqlarining bahosi va o'ziga-o'zi baho berish katta

ahamiyatga ega. Bolalar yasagan buyumlari o'yin va mashg'ulotlarda qo'llanilsa, ular o'zlari yasayotgan buyumlar yanada sifatli bo'lishiga intiladilar.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning yoshi ulg'ayishi bilan mehnat sabablari ham o'zgarib boradi. Mutaxassislarining olib borgan ilmiy izlanishlari natijasi shuni ko'rsatadiki, bolalarni kattalar mehnati bilan tanishtirish orqali ular kattalardan mehnatning ijtimoiy sababini ancha erta o'zlashtirib olar ekanlar.

Lekin ular biron ishni mustaqil bajarganlaridagina o'z mehnatlari boshqalar uchun foydali ekanligini ongli ravishda bilib oladilar. Masalan, onalar va buvilar uchun 8-martga sovg'a tayyorlash, kichiq guruh bolalari maydonchasini yig'ishtirishga yordamlashish, yirtilgan kitoblarni yamab berish, kontsert va teatr qo'yib berish va boshqalar bolalardi mehnatning muayyan natijasiga intilish uyg'otadi, faoliyatning ijtimoiy sabablarini anglatib, mehnatga xavasini, ishni bajarishda bolalarning o'z oldilariga qo'yadigan talablarini oshiradi.

V.I.Loginovaning olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlarida ta'kidlanishicha bolalarga mehnat tarbiyasi berish uchun ular mehnat va mehnat malakalari to'g'risidagi bilimlar sistemasini o'zlashtirib olishlari kerak ekan:

1. Mehnat maqsad qo'yish va uning natijasini belgilab olishdan boshlanadi: maqsad – mehnat tasviri.

2. Mehnat qilishdan ko'zlangan maqsad bo'yicha kerakli materiallarni tanlab (ajratib) olish.

3. Materialni ishlash uchun kerakli asboblarni tanlab (ajratib) olish.

4. Natijaga erishish uchun mehnat harakatlarini bajarish.

Bu sistemani quyidagi sxemada keltirish mumkin: maqsad, mehnatni tanlash, materialni tanlash, mehnat faoliyati – mehnat quroli, mehnat natijasi.

Shunday qilib, maktabgacha yosh davrida mehnat faoliyati shakllantiriladi. Pedagog rahbarligida mehnatning ijtimoiy sabablarini hamma muhim tomonlari shakllanadi. Kattalar mehnati va uning ijtimoiy ahamiyati to'g'risidagi bilimlar o'zlashtirilib olinadi.

Maktabgacha tarbiya yoshi davrining o'ziga xos tomonlaridan yana biri bolalar mehnatining o'yin bilan bog'liqligidir.

O'yin jarayonidagi biror harakat doimo biror mehnat jarayonini aks ettirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ikkinchi tomondan, mehnat jarayonini bajarishda uni o'yin shakliga aylantirishadi, masalan, barglarni zambillarda tashishadi, mashinalarda yurishadi.

Shu bilan birga o'zining xususiyati, mazmuni, yuzaga kelish sababiga ko'ra mehnat va o'yin bir-biridan farq qiladi. Mehnatda maqsad qo'yiladi, uni amalga oshirish, natijasiga erishish uchun shart-sharoit yaratiladi, vositalar izlab topiladi. O'yinda esa bolalar kattalarning mehnat faoliyatiga taqlid qiladi. O'yinda mehnat singari biror aniq natijaga erishilmaydi, ammo u mehnat singari bolalarga quvonch bag'ishlaydi, ular o'zlarida qoniqish xissini sezadilar. O'yinda bola o'z o'ylaganini rivojlantirishi etakchi rolni o'ynaydi, mehnatda esa natijaga erishish yo'lidagi mehnat harakatlari, o'yin o'zining rivojlanishidagi har qanday bosqichda to'xtatilishi mumkin, mehnatda esa albatta ko'zlangan natijaga erishiladi.

Bolalarning mehnat faoliyati qachon va qanday qilib o'yindan ajratiladi? Kichik bog'cha yoshidagi bolalar mehnatining asosiy turi o'z-o'ziga xizmatdir. Bu

kichik bolalar uchun ancha mashaaqqatli ish. Shuning uchun bu yoshdagi bolalarni mehnatning bu turiga o'rgatishda ko'pincha o'yin vaziyatlaridan foydalaniladi («Qo'g'irchoqni sayrga otlantiramiz», «Qo'g'irchoqni uxlatamiz» va shularga o'xshashlar). Avvaliga bolalar o'yin obrazi orqali mehnatga o'rgatiladi. Shu orqali bolalar ishonch bilan harakat qilishni o'rganadilar.

Sekin-asta o'z-o'ziga xizmat qilish malaka va ko'nikmalari shakllana boradi.

2-ilova

Mavzu yuzasidan 5 ta test tuzing.



Uyga topshiriq!

Sharq mutafakkirlarining mehnat tarbiyasi haqidagi qarashlarini yozib keling.



17-amaliy mashg'ulot:
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLANI MEHNAT
FAOLIYATIDA BOLANI DANGASALIGI.

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Bolalarda dangasalik tushunchasining mazmuni va belgilari. 2. Mehnat faoliyatida dangasalikning kelib chiqish sabablari. 3. Dangasalikning bolaning shaxsiy rivojlanishiga ta'siri.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: 1. Dangasalik mehnatdan qochish, sustlik va qiziqishning pasayishida namoyon bo'ladi uning sabablarini aniqlash yo'llarini topish 2. Noto'g'ri tarbiya, rag'bat yetishmasligi dangasalikni yuzaga keltirish sabablari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida Mehnat qurollari va mehnat mashg'ulotlariga bog'liq materiallarni yozib kelishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

Slayd bilan tanishing va mavzuni konspektlashtiring.

Mehnat tarbiyasining asosiy maqsadi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, axloqli qilib tarbiyalash, kelajakdagi mehnat faoliyatiga ruxiy jihatdan tayyorlash, mehnat qilish xohishini singdirib borishdir.

Mehnat tarbiyasining vazifalari xilma-xildir, shuning uchun ularni guruhlar bo'yicha quyidagicha turkumlarga ajratiladi (V.I.Loginova):

Birinchi guruh vazifalari bolalarning mustaqil mehnat faoliyatiga pedagogik ta'sir ko'rsatish bilan belgilanadi: 1. Bolalarni maqsad qo'yishga, mehnat malakalari, ko'nikmalari, mehnat madaniyati bo'yicha kerakli materiallar va mehnat qurollarini tanlab olishga o'rgatish.

2. Bolalarda bo'lajak mehnat faoliyatini shakllantirish, mehnat jaryonlarini mehnatda qatnashuvchilar o'rtasida taqsimlash, mehnatda yaxshi natijalarga erishish malakalarini shakllantirish.

3. Mehnat faoliyatining dastlabki ijtimoiy sabablarini shakllantirish, buyumlar va harakatlarga qiziqish uyg'otish orqali mehnat natijalariga erishish, katta guruhlarda esa mehnatning ijtimoiy ahamiyatli ekanligini tushinib etish.

Ikkinchi guruh vazifalari kattalar mehnatiga ijobiy munosabatni tarbiyalashga qaratilgan: 1. Bolalarga kattalarni qanday natijalarga erishish uchun mehnat qilayotganini tushuntirish.

2. Bolalarda mehnat ahliga hurmatni, ularga qo'lidan kelganicha yordam berish xohishlarini tarbiyalash.

3. Kattalarning mehnat natijalarini asrab-avaylashga o'rgatish.

Uchinchi guruh vazifalari mehnat faoliyatida bola shaxsini shakllantirishga qaratilgan: 1. Bolalarda mehnatsevarlik, har qanday mehnatda qatnashish, boshlagan ishini oxiriga yetkazish uchun bor kuchini ayamaslik, o'z shaxsiy mehnatiga nisbatan to'g'ri munosabatni tarbiyalash.

2. Javobgarlik, mustaqillik, maqsadga qaratilganlik, qat'iylik, tashabbuskorlik va faollik, sabr-matонатlilik, chidamlilik kabi bola shaxsining axloqiy sifatlarini tarbiyalash.

3. Madaniy xulq va o'z tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalash, o'zaro kelishgan holda birga ishlay olish, jamoa ishida natijaga erishguncha o'z mehnati bilan qatnashish, o'zi va o'rtoqlarining mehnatini xolisona baholash, yordam berish.

Bolalar mehnatining mazmuni «MTMda ta'lim va tarbiya dasturi»ning birinchi va ikkinchi kichik guruhlar uchun «Mehnat faoliyati uchun zamin tayyorlash» bo'limida, o'rta, katta va maktabga tayyorlov guruhlarida esa «Mehnat» bo'limida berilgan.

Kattalar mehnati bilan tanishtirish hamma yosh guruhlar uchun «Mashg'ulotlarda ta'lim berish», «Tevarak-atrof bilan tanishtirish va ijtimoiy hayot xodisalariga qiziqishni tarbiyalash» bo'limlarida berilgan. Katta va maktabga tayyorlov guruhlar uchun qo'l mehnatining mazmuni «Qurish-yasash» bo'limida berilgan. Dasturda bolalar mehnatiga mustaqil faoliyat va axloqiy tarbiyaning vositasi sifatida qaraladi.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnat faoliyatining asosiy maqsadi nima?
 - A) Bolani jazolash
 - B) Mustaqillik va mas'uliyatni shakllantirish
 - C) Vaqtni band qilish
 - D) Bolani majburlash
2. Bolalarda dangasalik ko'pincha qaysi holatda namoyon bo'ladi?
 - A) Faollik va qiziqish oshganda
 - B) Mehnatdan qochish va sustlikda
 - C) O'yin davomida
 - D) Rag'bat berilganda
3. Mehnat faoliyatida dangasalikning asosiy sabablaridan biri qaysi?
 - A) To'g'ri tashkil etilgan tarbiya
 - B) Rag'batlantirishning yetishmasligi
 - C) Qiziqarli mashg'ulotlar
 - D) Ijobiy muhit
4. Dangasalik bolaning qaysi jihatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi?
 - A) Jismoniy sog'lig'iga
 - B) Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga
 - C) Nutq boyligiga
 - D) Tashqi ko'rinishiga
5. Tarbiyachi boladagi dangasalikni bartaraf etishda nimaga e'tibor berishi kerak?
 - A) Jazolashga
 - B) Majburlashga
 - C) Individual yondashuvga
 - D) E'tiborsiz qoldirishga
6. Qaysi usul bolada mehnatga qiziqishni oshiradi?
 - A) Qo'rqitish
 - B) Taqqoslash
 - C) Rag'batlantirish
 - D) Tanbeh berish
7. Maktabgacha yoshdagi bolani mehnatga o'rgatishda qaysi faoliyat muhim?
 - A) O'yin faoliyati
 - B) Majburiy ishlar
 - C) Jazo choralari
 - D) Passiv mashg'ulotlar
8. Dangasalikni oldini olishda ota-onaning vazifasi nima?
 - A) Bolani tanqid qilish
 - B) Tarbiyachi bilan hamkorlik qilish
 - C) Bolani jazolash
 - D) Ishni bolaning o'rniga bajarish
9. Bolada mehnatsevarlik qaysi yosh davrida shakllana boshlaydi?
 - A) O'smirlik davrida
 - B) Maktab yoshida
 - C) Maktabgacha yosh davrida
 - D) Voyaga yetgach
10. Mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil etish natijasida bolada nima shakllanadi?
 - A) Qo'rquv
 - B) Beparvolik
 - C) Mas'uliyat va mustaqillik
 - D) Dangasalik



Uyga topshiriq!

Mehnat qurollari va mehnat mashgʻulotlariga bogʻliq materiallarni yozib keling. Mehnat tarbiyasi mavzusi uchun 3 ta koʻrgazma tayyorlang.





18-amaliy mashg'ulot:
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA
IQTISODIY TARBIYA BERISH

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. MTTda iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. 2. MTTdagi iqtisod tarbiyasining mazmuni. 3. Sharq mutafakkirlari iqtisodiy tarbiya haqida.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. MTTda iqtisodiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini aniqlaydi. 2. Sharq mutafakkirlarining iqtisodiy tarbiya borasidagi fikrlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.

	Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida iqtisodiy tarbiya haqidagi 10 maqol topib, yozib kelish.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Slayd bilan tanishish va mavzuni konspektlashtiring.

Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirish jarayonidir. Sharq mutaffakiri Abu Nasr al Farobiy iqtisodiy tarbiya mazmuni haqida insonga yashash uchun juda ko'p narsalar keraqligini va bularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat etish zarurligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko'rsatib o'tgan edi. U o'zining "Baxt-saodatga erishuv yo'lida" asarida shunday yozadi: «Inson o'z mablag'ini to'g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchilik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi».

Ko'rinib turibdiki, o'tmish mutafakkirlari MTT, maktab va oila sharoitlarida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o'rgatish, hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e'tibor berganlar.

Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Bola MTTga borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino o'z asarlarida shu xususda

alohida to'xtaladi: «Oila a'zolari kunlik oziq-ovqatlar uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, guruch va mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo'lishi lozim. Ota-ona uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasixat yo'li bilan o'rgatadi». Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish kerak deb ko'rsatadi: «Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro'zg'or tebratish uchun asqotadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zahirida bolada mehnatsevarlikni shakllantirish yotadi.

Bu shunday olib borilishi kerakki, bola o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatlaridan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganini anglaydi. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo'ladi.» Ota-onalar xovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, Kir yuvish va kiyim kechakni yamash, ro'zg'or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash sohasida bolalar mehnatini tashkil etadilar. Bunda ota-ona yumushlarini bolalarga ularning jismoniy, ruhiy, aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan holda topshirishlari kerak. Ota-ona ishni topshirish bilan cheklanmay bola uni qanday bajarayotganligini tekshirishi, lozim bo'lsa, maslahat berishi, ko'maklashishi bolaning ruhanib turishi maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan oila, maktab, jamoatchilik va mehnat jamoalarining bahamjihat kuch-g'ayrat sarflashlariga va bolalarga nisbatan qo'yiladigan talablari bir xil bo'lishiga bog'liq. Bugun MTT guruhlarida o'tirgan yoshlar ertaga shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, Vatan mudofaasi, Xalqaro munosabatlar va tabiat injiqliklari bilan bog'liq ravishda tug'iladigan muammolarni to'g'ri hal etishga yaroqli bo'lgan qobiliyatini, jumladan, tejash va tejamli bo'lish qobiliyatini hozirda boshlab astoydil shakllantirish va uqtirish g'oyat katta ahamiyat egadir.

O'zbekiston davlatining moddiy va ma'naviy o'qish borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o'quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar.

Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mehnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog'lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oladilar. Bolalarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida biz keng va to'g'ri yo'naltirilgan yo'lni o'z oldimizga qo'yishimiz kerak.

2-ilova

Abu Ali Ibn Sino bozor haqida.

Sharq xalqlari iqtisodiy qarashlarining shakllanishiga dunyoga mashhur qomusiy olim Ibn Sino (980-1037) salmoqli hissa qo'shdi. Falsafa, mantiq, ruhshunoslik, odob-ahloq va boshqa ijtimoiy-siyosiy fanlarga doir 185 asar uning qalamiga mansubdir. U o'z asarlarida iqtisodiy masalalarni ham ko'rib chiqqan. Ular uy-xo'jaligi haqida risola va ruhshunoslik asarlarida bayon qilingan.

Ibn Sinoning fikricha «hayvonlar tabiat ne'matlari bilan kun ko'radilar, odamga esa tabiat ne'matlari kamlik qiladi, odamga oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy kerak. Hayvon tabiat ne'matlarini o'zlashtirib oladi, odam esa oziq-ovqat,

kiyim-kechak, uy-joyni o'z mehnati bilan yaratadi. Ana shu maqsadda odam dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanadi.

Hunar jamiyat turmushining asosi ekanligini ta'kidlab, Ibn Sino: "Odamni o'z quvvatini saqlab turishga, ovqatga bo'lgan ehtiyoji hammaga Olloh taolo ko'rsatgan hunarlarni egallashni taqozo etadi. Odamlar hayotga munosabatlariga qarab ikki xil bo'ladilar. Birinchi xili, turmush sharoitini yaxshilashga harakat qilmaydi, ikkinchi xili, turmushini yaxshilash maqsadida hunarga muhtojlik sezadi. Shuning uchun ular savdo va hunarmandchilik yordamida o'zlariga ozuqa topadilar", - deb yozgan edi. Umuman jamiyat turmush sharoitini yaxshilash uchun Ibn Sino har kimning o'z foydasi uchun mehnat qilishi lozim deb hisoblagan.

Abu Nasr Forobiy ehtiyoj haqida.

Iqtisodiy masalalar bo'yicha qiziqarli fikrlarni, buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy (873-950) bayon qilgan. O'zining zamondoshlari kabi u bozorning aniq ta'rifini bermagan, biroq uning ayrim elementlari haqida fikr bildirgan. Masalan, uning ehtiyojga bergan ta'rifi diqqatga sazovordir: «O'z tabiatiga ko'ra har - bir odam shunday yaratilganki, u yashashi va kamolga yetishishi uchun juda ko'plab narsalarga muhtoj bo'ladi, ularga bir o'zi erisha olmaydi va ularga erishishi uchun u kishilar jamoasiga muhtoj bo'ladiki, ularning har biri uning biror-bir hojatini chiqaradi. Har bir odam boshqa odamga nisbatan xuddi shunday ahvolda bo'ladi».

Shunday qilib, Forobiyning fikricha, insonning yashashi va kamolga yetishi uchun zarur bo'lgan narsalar yig'indisi ehtiyojdir. Forobiyning ehtiyojga, jamiyatning shakllanishi va rivojlanishida uning ahamiyatiga bergan ta'rifi bizning davrimizda ham e'tiborini yo'qotmagan.

A.Navoiy moddiy manfaat haqida.

Mashhur o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) tarixning harakatlantiruvchi kuchlari haqida fikr yuritib, moddiy manfaat va aqlni, insonlarning qilmishini belgilovchi asosiy omildir, deb hisoblagan. Bunda uning fikricha, birinchi omil ayrim kamdan kam uchraydigan mustasnolardan tashqari ustunlik qiladi. Shunday qilib, u insonlarning qilmishini ma'naviyat emas moddiy manfaat belgilaydi, - degan xulosaga kelgan. Asarlardan birida Navoiy: «Insonlar zarurat sezmasalar harakat qilmaydilar. Odamlar o'z manfaatidan kelib chiqib harakat qiladi, foyda chiqadigan narsaga intiladi. Bilginki, odam natijasi foydasiz bo'lgan ishni qilmaydi». Garchi iqtisodiy ilm bilimdoni bo'lmasa ham, Navoiy ayrim odamlargina emas, balki butun kishilik jamiyatining qilmishida moddiy manfaat hal qiluvchi omil ekanligini yaxshi tushungan. U: «Xalqning to'qligi, qoniqishi har qanday boshqa murakkab muammolarni hal qiladigan ne'matdir. Unga asosan butun dunyoni zabt etish mumkin», - deb yozgan.

Navoiyning fikricha, moddiy boylikning manbai dehqonlar va hunarmandlar mehnatidir. Ayniqsa dehqon mehnatini u juda yuksak baholagan, chunki dehqon «yer bag'rini ochib, g'alla ekadi, rizq-nasibaga yo'l ochadi, hayot go'zalligi undan, dunyo ahlining quvonchi undan» - deb yozgan. Darhaqiqat, aholining oziq-ovqatga ehtiyojini qondirishda dehqonchilik hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Sharq xalqlarining iqtisodiy qarashlarini shakllanishida Islom salmoqli hissa qo'shdi. Farobiy o'zining «Fozil shaharning fozil kishilari» asarida orzu qilgan jamiyatda o'zaro yordamning iqtisodiy asosini ochib berdi. Xadislardan birida, o'zaro hojat chiqarish odamlar o'rtasidagi o'zaro yordamning asosidir deyilgan.

5-15-asrlarda Markaziy Osiyo va Sharqda yashab ijod qilgan mutafakkirlar iqtisodiy ta'limotini umumlashtirish quyidagi xulosalarga olib keladi:

1) Odamlarning ko'pchiligini, sa'yi-harakatini belgilovchi asosiy omil, moddiy manfaatdir;

2) Odamlar o'rtasidagi o'zaro yordamning asosi - o'zaro ehtiyojlarni qondirishdir;

3) Jamiyat - ehtiyojlarini birgalikda qondirishga asoslangan mehnat jamoasidir;

4) Jamiyatlarning turmush tarziga qarab farqlanadi, turmush tarzi esa yashash vositalariga erishish usullariga qarab belgilanadi.



Uyga topshiriq!

Iqtisodiy tarbiya haqidagi 10 maqol topib, yozib kelish.



19-amaliy mashg'ulot: MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISH

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Huquqiy ong va uning tuzilishi. 2. Huquqiy ongni rivojlantirishda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning roli. 3. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari va poydevor prinsiplari. 4. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya normalarining umumiy tavsifi.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
Pedagogik vazifalar: - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Huquqiy ong va uning tuzilishini aniqlaydi. 2. Huquqiy ongni rivojlantirishda huquqiy madaniyat va huquqiy tarbiyaning roli haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 3. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qabul qilishning shart-sharoitlari, o'ziga xos xususiyatlari, poydevor prinsiplarini aniqlaydi. 4. "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya normalarining umumiy tavsifi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ladi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. https://bolahuguqlari.uz/ sayti bilan tanishish va sayt imkoniyatlari haqida ma'lumot yozish, https://adolatnashr.uz/uploads/1.Bola%20huquqlari.pdf havolasi orqali qo'llanma bilan tanishishni topshiradi.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Tayanch atamalarni konspektlashtiring.

HUQUQIY ONG – bu ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquq-tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular, tasavvurlar yig'indisidir.

HUQUQIY RUHIYAT – alohida ijtimoiy guruh, shaxs yoki butun jamiyatda stixiyali ravishda vujudga keladigan huquqiy tuyg'ular, hissiyotlar, kayfiyatlar, fikrlar yig'indisidan iborat.

HUQUQIY MAFKURA – bu sinfnig, jamiyatning huquqiy qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari va talablarining ilmiy tizimlashtirilgan ifodasidir.

HUQUQIY MADANIYAT – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilish va unga rioya qilishi.

HUQUQIY TARBIYA – bu jamiyat a'zolarining yurish-turish madaniyatiga va ongiga huquq haqidagi bilimlarni doimiy ravishda maqsadga muvofiq ta'sir etish orqali singdirib borish jarayoni.

HUQUQIY NIGILIZM – bunda (lot. “nihil” - “hech narsa”) huquq subyekt(lar)ining amaldagi huquq normalarini mensimasligi, ularga hurmatsizlik munosabatida bo'lishi yoki inkor qilishi tushuniladi.

2-ilova

Matn asosida huquqiy tarbiya vositalarini aniqlang va klaster metodi asosida ko'rgazma tayyorlang.

Maktabgacha ta'limda bola o'yin faoliyati bilan umumiy o'rta ta'limga tayyorlanib borishi bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida “Konstitutsiya saboqlari” mashg'ulotlari bolalarning yoshi, ongi, idrok saviyasi, har bir bolaning yosh xususiyatlari inobatga olingan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'rgatish faoliyati o'yinlar orqali amalga oshirilishi sababli, Konstitutsiyadagi qoidalar turli xil mashg'ulotlarda tushuntiriladi. Aynan shu o'yinlar orqali bolalar o'z huquq va erkinliklarini, burchlarini anglab olishadi. Bu davrda konstitutsiyaviy qoidalar sodda, oddiy, bolalar uchun tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etilib, *birinchidan*, bolalarga inson tushunchasi, uning ahamiyati, jamiyatdagi o'rni, inson sifatida bolalarning huquq va erkinliklari tushuntirilib, insonni sevish, uni hurmat qilishga odatlantiriladi, insoniylikning yovuzlik, vahshiylikdan farqi ertaklar aytib berish, ertaklardagi voqealarni tahlil qilish mobaynida o'rgatiladi; *ikkinchidan*, davlat inson manfaatini himoya qilishini, insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini eng oliy qadriyat hisoblanishini bolalar tilida tushuntirilib, inson sifatida,

avvalo, o'zining qadr-qimmatini bilishga va uni hurmat qilishga o'rgatiladi; *uchinchidan*, bolalar qanday vazifalarni ado etishlari o'rgatiladi. Madaniyat, ma'naviy va tarixiy merosni avaylab asrashga, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga odatlantiriladi; *to'rtinchidan*, qiz bolalar va o'g'il bolalarning bir-birini hurmat qilishlari, o'zaro munosabatlari ham bayon etilib, ularning teng huquqli ekanliklari tushuntiriladi; *beshinchidan*, jamiyatda oilaning o'rni, oilaning davlat tomonidan muhofaza qilinishi, farzandlar ota-onaga g'amxo'r bo'lishi, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishi lozimligi bayon etiladi; *oltinchidan*, Vatanni sevishga, uni himoya qilishga o'rgatiladi. Davlatimiz ramzlari – bayroq, gerb, madhiyaning ma'no-mazmuni bayon etiladi. Konstitutsiyaviy ta'lim berish natijasida bir neta bayroq va gerblar ichidan O'zbekiston Respublikasining Davlat Bayrog'i, Gerbini ajrata olish malakasi shakllantiriladi. Bularning barchasini amalga oshirishda shuni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, bolalar shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsalar, endi o'z xohish-irodasi bilan kerakli ma'lumotlar yig'ishga harakat qiladilar. Bolaning ana shu faolligi uning mustaqillik, erkinlik, mas'uliyatlilikka olib keladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni umumiy axloq qoidalariga rioya qiladigan, shaxs sifatida kamolga yetkazishga asos bo'la oladigan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

3-ilova

Tayanch atamalarni konspektlashtiring.

Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya haqida nimalarni bilamiz?

Nyu-York shahrida 1989-yil 20-noyabr kuni qabul qilingan va 1990-yil 2-sentyabr kuni kuchga kirgan.

Bugungi kunda Konvensiyaga a'zo davlatlar soni – 196 ta.

Konvensiyani imzolagan, lekin ratifikatsiya qilmagan davlatlar soni – 1 ta (AQSH).

O'zbekiston Respublikasi mazkur Konvensiyaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 9-dekabrdagi 757-XII-sonli “Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida”gi muvofiq qo'shilgan.

Konvensiya O'zbekiston Respublikasi uchun 1994-yil 29-iyuldan kuchga kirgan.

Konvensiyaga muvofiq har bir shaxs 18 yoshga to'lgunga qadar bola deb e'tirof etiladi.

Konvensiya 54 moddadan iborat bo'lib, unda quyidagi asosiy normalar belgilangan:

1-4-moddalarda: “bola” tushunchasi, bolalar manfaatlarining ustuvorligi va ishtirokchi-davlatlarning Konvensiyada belgilangan huquqlarni kamsitishsiz amalga oshirish choralari ko'rish majburiyati;

5-11-moddalarda: hayotga, ismga, fuqarolikka, ota-onasini bilish huquqiga, ota-onaning g'amxo'rligi va ajralmasligiga, ota-onalarning bolalarga nisbatan huquqlari va majburiyatlari;

12-17-moddalarda: bolalarning o'z nuqtayi nazarini, o'z fikrini bildirish, fikrlash, vijdon va din erkinligi, uyushish va tinch yig'ilishlarga bo'lgan huquq, bolaning axborotga ega bo'lish va uni tarqatish huquqlari;

18-27-moddalarda: davlat tomonidan bolaning ota-onalariga va qonuniy vakillariga yordam berish, shuningdek bolalarga ularni tarbiyalovchi shaxslar tomonidan qo'pol muomala bo'lish, ularning tahqirlanishidan himoya qilish, oilaviy muhitdan mahrum bo'lgan yoki asrab olingan, aqliy yoki jismoniy jihatdan zaif bolalarni himoya qilish, bolalarning sog'liqni saqlash sohasidagi huquqlari, shuningdek, bolalarning ijtimoiy rivojlanishi uchun zarur bo'lgan turmush darajasi to'g'risidagi normalar;

28-31-moddalarda: bolalarning ta'lim olish, ona tili va madaniyatidan foydalanish, dam olish olish va madaniy sohadagi huquqlari;

32-36-moddalarda: davlatning bolalarni noqonuniy ekspluatatsiya qilinishdan, giyohvand moddalarni noqonuniy iste'mol qilish, o'g'irlash va bolalar savdosidan himoya qilishga oid majburiyatlari;

37-41-moddalarda: sodir etilgan jinoyatlar uchun jazodan ozod qilish imkoniyati bo'lmasa o'lim va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazolari 18 yoshga to'lgunga qadar sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan qo'llanilmasligi, bolalarga nisbatan qiynoqqa solish va qadr-qimmatni kamsituvchi jazo ta'qiqlanishi, jinoiy xatti-harakatlar sodir etishda ayblanayotgan bolaning huquqlari, shuningdek qurolli to'qnashuvlar va urushlar paytida bolalarni himoya qilish normalari.

Konvensiyaning a'zo davlatlar tomonidan bajarilishi ustidan monitoringni BMTning Bola huquqlari bo'yicha qo'mitasi amalga oshiradi.

4-ilova

Konvensiya bo'yicha 3 ta ko'rgazmali material tayyorlang.



Uyga topshiriq!

<https://bolahuquqlari.uz/> sayti bilan tanishing va sayt imkoniyatlari haqida ma'lumot yozing.

<https://adolatnashr.uz/uploads/1.Bola%20huquqlari.pdf> havolasi orqali qo'llanma bilan tanishing.



20-amaliy mashg'ulot:
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA
EKOLOGIK TARBIYA BERISH

Vaqt: 2 soat	Talabalar soni: 30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
O'quv mashg'ulotining rejasi	1. Ekologik tarbiyaning nazariy asoslari. 2. Ekologik tarbiyani shakllantirish metodikasi 3. Ekologik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i>	Ma'ruza mashg'uloti jarayonida ochiq va bahsli qolgan savollar va muammolar borasida suhbat va bahs-munozara o'tkazish orqali mavzuni yanada mustahkamlash.
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - mavzu bo'yicha bilimlarni tizimlashtirish, mustahkamlash. - darslik bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish; - axborotlarni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> Talaba: 1. Ekologik tarbiya tushunchasi, maqsadi va bolalarga mos xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'ladi. 2. Ekologik tarbiyaning asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.
O'qitish uslubi va texnikasi	Konspektlashtirish, atamalar bilan ishlash
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv qo'llanmasi, proyektor, flipchart, marker, doska.
O'qitish shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish, individual va guruh bo'yicha o'qitish.
O'qitish shart-sharoiti	Kompyuter texnologiyalari, proyektor bilan ta'minlangan, guruhda dars o'tishga moslashtirilgan auditoriya.

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talabalar
1-bosqich. Kirish (10 minut)	1.1. Mavzu, maqsad va rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularni ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. Mashg'ulotni hamkorlikda ishlash texnologiyasini qo'llagan holda o'tishni ma'lum qiladi. 1.2. Aqliy hujum usulidan foydalangan holda auditoriyaning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi:	1.1. Mavzuni yozadi va savollarga javob beradilar.

	Mazmunining muhokamasi guruhlarda davom etishini e'lon qiladi.	
2-bosqich. Asosiy (60 daqiqa)	2.1. Talabalarni 3 guruhga bo'ldi, har biriga vazifa beradi (2-ilova). Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi. 2.2. Guruhda ishlash qoidasi bilan tanishtiradi (1-ilova). Baholash mezonlarini ham namoyish qiladi. 2.3. Vazifani bajarishda o'quv materiallari (ma'ruza matni, o'quv qo'llanma)laridan foydalanish mumkinligini eslatadi. Guruhlarda ish boshlashni taklif etadi. 2.4. Tayyorgarlikdan keyin taqdimotni boshlangani e'lon qilinadi. 2.5. Talabalar javobidagi xulosalarga e'tibor beradi, aniqlik kiritadi. 2.6. Talabalarga taqdimotni namoyish qiladi. Tushunchalarga izohlarni to'g'rilaydi va savollarga javob qaytaradi. Guruhlar faoliyatiga umumiy ball beradi.	2.1. O'quv natijalarini taqdim qiladilar. 2.2. Savollar beradilar. 2.3. Javoblarni to'ldiradilar. 2.4. Jadval ustunlarini to'ldiradilar va muhokamada ishtirok etadilar.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi, talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Ekologik tarbiya haqida konspekt qilish hamda har bir kishi bir donadan keys tuzib kelish.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqlarni oladilar.

O'quv topshiriqlari.

1-ilova

Tayanch atamalarni konspektlashtiring.

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois ekologik tarbiyani inson hayotining ilk bosqichidanoq shakllantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya berish kelajak avlodning tabiatga bo'lgan munosabatini belgilab beradi. Bu yosh davrida bolalar atrof-muhitni bevosita kuzatish, his qilish va tajriba orqali o'rganadilar.

Ekologik tarbiya bolalarda tabiat haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirish, o'simliklar va hayvonot olamiga mehr-muhabbat uyg'otish, atrof-muhitni asrash zarurligini anglatishga qaratilgan jarayondir. Maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat hodisalariga juda qiziquvchan bo'lib, ularning savollari va kuzatuvlari ekologik ongni shakllantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu sababli tarbiyachi bolalarning bu qiziqishidan to'g'ri foydalanishi lozim.

Maktabgacha ta'lim davrida ekologik tarbiyaning ahamiyati shundaki, bu davrda bolaning shaxsiyati, axloqiy fazilatlar va dunyoqarashi shakllanadi. Agar bola kichik yoshidan boshlab tabiatga mehr bilan qarashni, uni asrab-avaylashni o'rgansa, bu odatlar uning butun hayoti davomida saqlanib qoladi. Tabiatni

asrashga o'rgatilgan bola o'z atrofidagi muhitga befarq bo'lmaydi, tozalikni saqlashga intiladi.

Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish, ya'ni tabiat bilan uyg'un yashash zarurligini tushuntirishdan iboratdir. Bu jarayonda bolalarga tabiat hodisalari, fasllar almashinuvi, o'simlik va hayvonlarning hayoti haqida sodda va tushunarli bilimlar beriladi. Shu bilan birga, bolalarda o'simliklarga suv quyish, hayvonlarga ozor bermaslik, atrofni iflos qilmaslik kabi amaliy ko'nikmalar hosil qilinadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya turli faoliyatlar orqali amalga oshiriladi. Tabiatni kuzatish, sayr paytida atrof-muhitdagi o'zgarishlarga e'tibor qaratish, o'yinlar, ertaklar, she'rlar va suhbatlar bolalarda ekologik tushunchalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, amaliy faoliyat — gullarni parvarishlash, daraxt ekish, tabiatni toza saqlashga doir mashg'ulotlar bolalarda mas'uliyat hissini kuchaytiradi.

Bu jarayonda tarbiyachining o'rni beqiyosdir. Tarbiyachi bolalarga nafaqat bilim berishi, balki ularga shaxsiy namuna bo'lishi ham zarur. Uning tabiatga bo'lgan munosabati, so'zlari va xatti-harakatlari bolalar tomonidan tez qabul qilinadi va taqlid qilinadi. Shuning uchun tarbiyachi ekologik madaniyatga ega bo'lishi va bolalarda ham shu fazilatlarni shakllantira olishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik tarbiya berish jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Tabiatni sevib, uni asrab-avaylab voyaga yetgan bola kelajakda ekologik muammolarga befarq bo'lmagan, ongli va mas'uliyatli fuqaro bo'lib yetishadi. Shunday ekan, ekologik tarbiyani maktabgacha ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida tashkil etish bugungi kun talabi hisoblanadi.



Uyga topshiriq!

Ekologik tarbiya haqida konspekt qilish hamda har bir kishi bir donadan keys tuzib kelish.

“Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi” fanidan oraliq va yakuniy nazoratlar, shuningdek, yakuniy Davlat attestatsiyasi uchun test banki

Aqliy tarbiyaning qaysi vazifasida maktabgacha ta’lim tashkilotida lug‘at boyligini oshirish, so‘zning grammatik tuzilishini shakllantirish, bog‘lanishli nutqni rivojlantirish masalalarini hal qiladi?

- a. Nutqni va tovushni rivojlantirish
- b. Nutqni o‘stirish
- c. Bilisha qiziqishni rivojlantirish
- d. Fikrlash faoliyatini rivojlantirish

Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishdagi o‘ziga xoslik qanday jarayonda namoyon bo‘ladi?

- a. Obrazli bilish shakllarini egallashda
- b. Iqtidor va qobiliyatni rivojlantirishda
- c. Bilish faolligini oshirishda
- d. Idrok etish jarayonida

Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi nimadan iborat?

- a. Bilish faolligini oshirish
- b. Idrok etish va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish
- c. Fikrlash qobiliyatini rivojlantirish
- d. Idrok etish qobiliyatini rivojlantirish

2008-yil 11-avgustda respublikamizdagi qaysi muzey qoshida “Bolalar muzeyi” tashkil etildi?

- a. O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi
- b. San’at muzeyi
- c. Bolalar muzeyi
- d. Amir Temur davlat muzeyi

Respublikamizda 2008-yildan boshlab qanday turkumdagi kompyuter mashg‘ulot – o‘yinlari ishlab chiqila boshlandi?

- a. Bilimdon
- b. Tushunarli o‘yinlar
- c. Qiziqarli o‘yinlar
- d. Bilag‘on

Tarbiyaning bola rivojlanishga ta’siri qanday?

- a. Bola ruhiy kamolga yetadi
- b. Bola axloqiy kamolga yetadi
- c. Bola jismoniy kamolga yetadi
- d. Bolaning axloq-odobi tarbiyalanadi

G‘oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi bu - ...?

- a. Tarbiya tamoyili
- b. Ta’lim tamoyili
- c. Axloqiy tarbiya tamoyili
- d. Ta’lim-tarbiya maqsadi

Kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni qaysi faoliyatda yaxshi egallaydi?

- a. O‘yin faoliyatida
- b. Mashg‘ulotlarda
- c. Jamoa bo‘lib ishlash jarayonida
- d. Mehnat faoliyatida

Shaxsning huquqiy madaniyatini asosiy qismlari to‘g‘ri berilgan javobni toping?

- a. Huquqiy ong va faoliyat
- b. Huquqiy faoliyat
- c. Huquqiy ong
- d. Huquqiy savodxonlik

Maktabgacha ta’limning asosiy ikkita modellari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a. Didaktik va metodik
- b. Ta’limiy va tashkiliy
- c. Tarbiyaviy va metodik
- d. Didaktik va tashkiliy

“Maktabgacha ta’lim Konsepsiyasi”ning bosh g‘oyasi bu -?

- a. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish
- b. Shaxsni shaxsiy sifatlarini shakllantirishga ko‘maklashish
- c. Ta’lim samaradorligini oshirish
- d. Ta’limni yangi pedagogik texnologiyalar bilan boyitish

Maktabgacha ta’lim olib boriladigan bolalar yosh chegarasi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a. 3 yoshdan 7 yoshgacha
- b. 2 yoshdan 6-7 yoshgacha
- c. Tug‘ilgandan to 7 yoshgacha
- d. 3 oylikdan 6-7 yoshgacha

Maktabgacha pedagogika fani bola shaxsini rivojlantirishning ikki muhim jihati asosiy e’tiborni qaratgan.

- a. Ta’limga va tarbiyalashga
- b. Shaxsini shakllantirish va o‘qitishga
- c. Tarbiyalashga va rivojlantirishga

- d. Jismoniy yetukligi va estetik rivojlanganligi

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fani obyekti to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- a. Yaxlit maktabgacha pedagogika jarayoni
- b. Maktabgacha ta'lim-tarbiya mazmuni
- c. Maktabgacha ta'lim-tarbiya shakl va metodlari
- d. Maktabgacha ta'lim-tarbiya qonuniyatlari

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining asosiy vazifalari qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- a. Tahliliy, prognostik, tashkiliy, metodologik
- b. Tahliliy, qiyosiy, prognostik
- c. Tajriba, shakllantirish, taqqoslash, yaxlitlash
- d. Metodik, ilmiy, qiyosiy, umumiy

Qaysi javobda Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fanining eng muhim kategoriyalari berilgan?

- a. Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, shakllanish, rivojlanish
- b. Bilim, malaka, ko'nikma, o'qitish
- c. O'qish, tarbiya, ma'lumot, shakllanish
- d. Rivojlanish, ma'lumot, tarbiya, shakllanish, o'qish

Y.K.Babanskiyning fikriga ko'ra shakllanish – bu?

- a. Muhit, irsiyat, tarbiya ta'sirida uning rivojlanishi jarayoni va natijasi
- b. Ijtimoiylashuv, tarbiya va o'z – o'zini rivojlantirish jarayoni va natijasi
- c. Hayotiy faoliyat jarayoni
- d. Maxsus tarbiyaviy xatti – harakatlar ta'sirida inson rivojlanishining muhim shakli

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar pedagogikasi fani rivoji nimaning hisobiga ta'minlanadi?

- a. Muayan pedagogik muammolarni tadqiq etish maqsadida olib borilgan tadqiqot ishlarining g'oyasi, mazmuni hamda natijalari
- b. Tarbiya jarayonlarining mohiyatini anglash, ularni keng va tor doirada o'rganish
- c. Shaxsni har tomonlama kamol toptirish
- d. Ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonining keskin rivojlanishi

Suhbat metodi maqsadga muvofiq holda qanday shakllarda o'tkaziladi?

- a. Individual, guruhli va ommaviy
- b. Yakka va ikki kishilik tarkib bilan
- c. Matematik-statistik metod
- d. Test metodi

Tarbiya pedagogikaning asosiy

- a. Tushunchasi

- b. Yo‘nalishi
- c. Bo‘limi
- d. Metodi

Tarbiyaning maqsadi ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

- a. Har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash
- b. Tarbiyalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etish
- c. Tarbiyaning tizimliliigi, to‘laligi, uzviyligi va uzluksizligidir
- d. Tarbiyaviy ishlar, tadbirlarning doimiy harakatdagi zanjiri

Tarbiyaning dastlabki qoidalari bir so‘z bilan

- a. Tarbiya tamoyillari
- b. Tarbiyaning mohiyati
- c. Tarbiya yo‘nalishlari
- d. Tarbiya qonuniyatlari

Tarbiya va tarbiyalanuvchilar orasidagi munosabatlar uslubiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi

- a. Avtoritar, demokratik, liberal va erkin tarbiya
- b. Pragmatik, aksiologik, jamoaviy va individual tarbiya
- c. Jamoaviy, yakka va individul tarbiya
- d. Demokratik, erkin va aksiologik tarbiya

Qaysi olim jismoniy tarbiyaning vazifalarini rivojlantiruvchi, tarbiyaviy, ta’limiy, sog‘lomlashtiruvchi va umummadaniy kabi turlarga ajratib o‘rgangan?

- a. B.T.Lixachev
- b. P.Yusupova
- c. I.F.Isayev
- d. I.P.Podlasiy

Jismoniy tarbiyani amalga oshiruvchi uch asosiy vositalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni aniqlang?

- a. Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va jismoniy mashqlar
- b. Tabiiy omillar, gigienik shart-sharoitlar va rivojlantiruvchi mashqlar
- c. Gigienik shart-sharoitlar, jismoniy va rivojlantiruvchi mashqlar
- d. Rivojlantiruvchi mashqlar, ta’lim va tarbiya

Jismoniy tarbiyani amalga oshirishga ko‘maklashuvchi tabiiy omillar o‘zida nimani aks ettidari?

- a. Tabiat in‘omlarining sog‘liqni mustahkamlash, bolaning morfologik va jismoniy to‘g‘ri rivojlanishiga ko‘maklashish imkoniyatlarini
- b. O‘zbekiston sharoitida tabiiy omillardan unumli foydalanishni
- c. Suv bilan chiniqtirishda bolalarning tibbiy-fiziologik o‘ziga hosliklarini

- d. Havo orqali chiniqtirishda sovuq havo bilan jismoniy mashqlar majmuini

Quyosh nurida chiniqtirish organizimda qaysi vitaminni paydo bo'lishiga yordam beradi?

- a. D
- b. B
- c. E
- d. A

Uyqu, ovqatlanish, kiyinish va kun tartibi jismoniy tarbiyani amalga oshirishga ko'maklashuvchi qaysi vositaning muhim jihatlari?

- a. Gigiyenik shart – sharoitlar
- b. Jismoniy mashqlar
- c. Rivojlantiruvchi mashqlar
- d. Tabiiy omillar

Jismoniy tarbiya qonuniyatlari va vazifalari bilan bog'liqlikda maxsus tashkil etiluvchi hamda ongli ravishda bajarishga qaratilgan harakatlar yig'indisi – bu.....

- a. Jismoniy mashqlar
- b. Chiniqtiruvchi mashqlar
- c. Rivojlantiruvchi mashqlar
- d. Harakatli mashqlar

Sayrni tashkil etishga qo'yilgan gigiyenik talablar tarkibiga kirmaydigan javob berilgan qatorni aniqlang?

- a. Sayr piyoda, qayiqda, chanada va velosipedda o'tkazilishi mumkin
- b. Sayr havo harorati hisobga olingan holda tashkil etiladi
- c. Sayr davomiyligi uch – to'rt soatdan oshmaydi
- d. Kerakli jihozlar oldindan tayyorlanadi

Quyida berilgan qaysi jihatlar ilk yosh guruh tarbiyalanuvchilarining jismoniy rivojlanishlariga mos kelmaydi?

- a. To'rt yo'nalishta yugirish
- b. Koptokni oldinga va yuqoriga irg'itish
- c. Ikki oyoqni juftlab turgan joyda sakrash
- d. Kerakli masofaga o'rindiqlar va halqaning tagiga emaklash

Qaysi guruhda bolalarga 20-40 metr masofaga o'rtacha tezlikda, 70-80 metrga asta- sekin yugurishga o'rgatiladi?

- a. Kichik guruh
- b. O'rta guruh
- c. Tayyorlov guruhi

d. Katta guruh

Katta guruhda bolalarga o'rgatiladigan malaka va odatlar tarkibi to'g'ri berilgan qatorni aniqlang?

- a. Muvozanat saqlash
- b. Yugirishni mustaqil mashq qilish
- c. To'g'ri yo'nalishda yugurish
- d. Gavda holatini tikka tutish

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga jismoniy tarbiya yo'riqchisi faoliyatida o'yinning qaysi turidan foydalanish maqsadga muvofiq?

- a. Harakatli o'yinlar
- b. Sahnalashtiruvchi o'yinlar
- c. Didaktik o'yinlar
- d. Rolli o'yinlar

Aql kuchi va fikrlashning birgalikdagi taraqqiyoti ning asosidir.

- a. Aqliy rivojlanish
- b. Aqliy tarbiya
- c. Aqliy kamolot
- d. Aql teranligi

Qaysi olim "Aqliy rivojlanish - intellektual faoliyatdan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi", - deb ta'rif bergan?

- a. Z.I.Kalmikov
- b. V.A.Krutetskiy
- c. A.N.Leontev
- d. P.Yusupova

Aqliy rivojlanish o'z ichiga qamrab olgan tushunchalar tizimi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang?

- a. Aqlning sustligi, barqarorligi va teranligi, fikrning tejamkorligi, moslashuvchanligi va anglanganligi
- b. Fikrning moslashuvchanligi, fikrning tejamkorligi, intellektning taraqqiyoti
- c. Aqlning barqarorligi, taraqqiyoti va teranligi
- d. Fikriy faoliyatning anglanganligi

O'qitish jarayoni nechta asosiy bo'g'indan tashkil topgan?

- a. 4
- b. 6
- c. 5
- d. 3

Ta'lim jarayonini tashkil etish va amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi zaruriy, sababiy, o'zgaruvchan aloqadorliklar yig'indisi nima deb ataladi?

- a. Ta'lim qonuniyatlari
- b. Ta'lim vositalari
- c. Ta'lim metodlari
- d. Ta'lim kategoriyalari

Zamonaviy didaktikada ta'limning tamoyillari to'g'ri ajratilgan javobni aniqlang?

- a. Mazmunli va tashkiliy-metodik
- b. Ko'rgazmali va amaliy
- c. Umumiy va yakka
- d. Og'zaki va ilmiy

Ta'limning tashkiliy – metodik tamoyillari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- a. Ta'limning izchillik, onglik va ko'rgazmalilik tamoyili
- b. Ta'limning tarbiyalanuvchanlik va ommaviylik tamoyili
- c. Ta'limning talabchanlik, tushunarlik va tabiat bilan uyg'unlik tamoyili
- d. Ta'limning insonparvarlik, tushunarlik tamoyili

Didaktikada nimalar yoritiladi?

- a. O'qitish qonuniyatlari va tamoyillari
- b. Tarbiya jarayonining mohiyati
- c. Ta'lim metodlari va tarbiya vositalari
- d. Ta'limning mazmuni va innovatsiyalar

Ta'limni tashkil etish shakliga qaysi qatorda to'g'ri ta'rif berilgan?

- a. Pedagog va bolaning maxsus tashkil etilgan faoliyati
- b. Pedagog va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir xususiyati
- c. Kun tartibida ma'lum bir vaqtda o'tkaziladigan mashg'ulotlar yig'indisi
- d. Bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sirlashuv

Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatini tashkil etishning nechta shakli mavjud va ular qaysilar?

- a. 3 ta: individual, guruhli va ommaviy
- b. 2 ta: individual va guruhli
- c. 3 ta: yakka, ommaviy va individual
- d. 2 ta: guruhli va jamoaviy

Abu Nasr Forobiy qaysi asarida komil inson tarbiyaviy sifatlarini ko'rsatib bergan?

- a. Fozil odamlar shahri
- b. Qonuni Mas'uriy
- c. "Metofizika"ga sharh
- d. Musiqqa haqida katta kitob

Tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri qanday?

- a. Bola ruhiy kamolga yetadi
- b. Bola axloqiy o'sadi
- c. Bola jismoniy shakllanadi
- d. Bola estetik rivojlanadi

Bolaning axloqiy rivojlanishidagi muhim omil nima?

- a. Ta'lim-tarbiya
- b. Tevarak-atrof
- c. Jamoa
- d. Ota-ona

Aqliy tarbiya mazmuni qaysi asosda belgilanadi?

- a. Tarbiya jarayonida
- b. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida
- c. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'tiladigan mashg'ulotlar matnida
- d. Ta'lim jarayonida

Sezgi va idrok qanday jarayonda muvaffaqiyatli rivojlanadi?

- a. Samarali faoliyat jarayonida
- b. Mashg'ulot jarayonida
- c. Loy va plastilindan narsalar yasash jarayonida
- d. Qurish-yasash o'yinlarini o'ynash vaqtida

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun qachon qabul qilingan?

- a. 2020-yil 23-sentabr
- b. 2020-yil 25-sentabr
- c. 2021-yil 23-sentabr
- d. 2022-yil 23-sentabr

"Pedagogika" so'zining ma'nosi nima?

- a. grekcha so'z bo'lib, "bola yetaklovchi"
- b. ispancha so'z bo'lib, "bola yetaklovchi"
- c. loticha so'z bo'lib, "bola tarbiyalash"
- d. forsha so'z bo'lib, "bola ilmi"

«Buyuk didaktika» asari muallifi kim?

- a. Yan Amos Komenskiy
- b. K.D.Ushinskiy
- c. Abu Rayhon Beruniy
- d. L.S.Vigotskiy

Kategoriya nima?

- a. fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushuncha
- b. ta'limning asosiy vazifasi
- c. o'qitish jarayonida bolalar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsahodisalar mohiyatini bilish

Ta'lim nima?

- a. bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarini shakllantirish jarayoni
- b. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochish
- c. o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar majmui
- d. fanning mohiyatini ifoda etuvchi eng muhim asosiy tushuncha

Qaysi taniqli nemis pedagogi bolalar bog'chasining asoschisi deb hisoblanadi?

- a. Fridrix Frebel
- b. K.D.Ushinskiy
- c. A.V.Zaporojes
- d. Yan Amos Komenskiy

Ta'lim o'zida nimani ifoda etadi?

- a. o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalarni
- b. bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni
- c. bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslashni
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa hodisalar mohiyatini bilish imkonini

Bilim nima?

- a. bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuquroq anglashga, hamda o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiat, jamiyat, tafakkur va faoliyat usullari qonuniyatlari haqidagi ilmiy tushunchalarning yaxlit va tizimlashtirilgan majmui
- b. o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar majmui
- c. bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllari majmui
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlar majmui

Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun necha bob va moddadan iborat?

- a. 11 bob 75 moddadan
- b. 11 bob 77 moddadan
- c. 12 bob 77 moddadan
- d. 11 bob 76 moddadan

Ilmiy bilim nima?

- a. ta'lim tarbiyani takomillashtirish muammolarini, yechimlarini topishda qo'l kelib, tizimni asosli va narsa-hodisalar mohiyatiga chuqur kirib boradigan bilim
- b. o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisi
- c. bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga aoslash
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochish

Emperik bilim deb nimaga aytiladi?

- a. bilishni kuzatish, o'lchash, tajriba usullarini qo'llash natijasi
- b. bu ijtimoiy tarixiy ong, insoniyat hayoti davomida to'plangan, amalda sinovdan o'tgan va obyektiv dunyoni chuquroq anglash
- c. bu sog'lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga aoslanish
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa hodisalar mohiyatini bilish

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 8-moddasida nima haqida fikr yuritilgan?

- a. Maktabgacha ta'lim haqida
- b. Ta'lim berish tili haqida
- c. Ta'lim mazmuni haqida
- d. Ta'lim va tarbiya haqida

Qachon Shveytsariya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarida nemis pedagogi Fridrix Frebelning maktabgacha tarbiya nazariyasi keng ommalashdi?

- a. XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrda
- b. XX asrning ikkinchi yarmi
- c. XIX asrning birinchi yarmi - XX asrda
- d. XIX asrning oxiri - XX asr boshida

Fridrix Frebel qaysi yillarda yashab o'tgan?

- a. 1782-1852-yillar
- b. 1788-1856-yillar
- c. 1782-1858-yillar
- d. 1788-1852-yillar

Bolalar bog'chasining paydo bo'lishi tarixi qaysi yilga borib taqaladi?

- a. 1837-yilga
- b. 1830-yilga
- c. 1847-yilga
- d. 1835-yilga

Burch qanday tushuncha?

- a. kishilarning biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha
- b. emperik holatlarni tushuntirish, ya'ni narsa hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochish
- c. o'qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma, malakalar
- d. pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqaradigan tarmog'i

Davlat standartlari – ?

- a. Ta'limning zarur darajasiga qo'yiladigan davlat talablarini belgilovchi mezon
- b. pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqaradigan tarmog'i
- c. ongli insonga xos va mos bo'lgan xislat, aqliy ma'naviy daraja
- d. har tamonlama barkamol shaxs mezon

Didaktika bu nima?

- a. pedagogikaning ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqaradigan tarmog'i
- b. ta'limning yetarli darajasiga qo'yiladigan davlat talablarini belgilovchi mezon
- c. ongli insonga xos va mos bo'lgan xislat, aqliy ma'naviy daraja
- d. har tamonlama barkamol shaxsni shakllantiruvchi fan

Komillik nima?

- a. ongli insonga xos va mos bo'lgan xislat, aqliy ma'naviy daraja
- b. aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyat
- c. har tamonlama barkamol shaxs ehtiyojlari
- d. ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqadigan shakl

Tarbiya qanday jarayon?

- a. aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida tashkil etilib, shaxsni mehnat va ijtimoiy faoliyatga tayyolashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon
- b. pedagogikadagi ta'lim va o'qitish nazariyasini ishlab chiqish jarayoni
- c. ongli insonga xos bo'lgan xislat, aqliy ma'naviy darajani hosil etish jarayoni
- d. har tamonlama barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoni

Tarbiya maqsadi -?

- a. har tamonlama barkamol shaxsni shakllantirish
- b. ta'lim va o'qitish nazariyasi tarmog'ini ishlab chiqish
- c. kishilarning biror shaxs, oila, jamoa, yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatish
- d. bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish

Maktabgacha pedagogika fanining - yaxlit maktabgacha pedagogik jarayon.

- a. obykti
- b. maqsadi
- c. predmeti
- d. vazifasi

F.Frebel nechta nomdagi “Tuhfalar”ni taklif etgan?

- a. 6 ta
- b. 5 ta
- c. 4 ta
- d. 8 ta

Maktabgacha ta’lim sohasi vujudga kelishida 1918-yilda Fridrix Frebel kursi qoshida qanday institutining tashkil etilishi muhim voqea bo‘lgan?

- a. Petrograd Maktabgacha ta’lim instituti
- b. Petrograd umumiy o‘rta ta’lim maktabi
- c. Petrograd oliy instituti
- d. Petrograd o‘rta maxsus instituti

Nazariy bilim nima?

- a. emperik holatlarni tushuntirish, ya’ni narsa-hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni nazarda tutadi
- b. o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zida ifoda etadi
- c. stilistik holatlarni tushuntirish, ya’ni voqealar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni ifoda etadi.
- d. axloqiy holatlarni tushuntirish, axloq ideali mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni ifoda etadi

Bola uch yoshga to‘lganda uning so‘z xaritasi nechta so‘zga yetadi?

- a. 1200-1500
- b. 1300-1600
- c. 1100-1600
- d. 1000-2000

Chex pedagogi Yan Amos Komenskiy nechanchi yillarda yashab o‘tgan?

- a. 1592-1670
- b. 1595-1670
- c. 1545-1770
- d. 1544-1660

1896-1934-yillarda qaysi olim maktabgacha ta'limning dasturiyligi haqidagi masalani ko'rib chiqdi?

- a. L.S.Vigotskiy
- b. Y.A.Komenskiy
- c. K.D.Ushinskiy
- d. F.Frebel

Yan Amos Komenskiyning maktabgacha ta'lim dasturi necha bo'limdan iborat?

- a. 19
- b. 20
- c. 15
- d. 16

Iqtisodiy tarbiya nima?

- a. jamiyatning iqtisodiy hayotini tushunish, bozor sharoitlarida iqtisodiy fikrlashni shakllantirish
- b. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikmalar va xulq-atvorning shakllanish jarayoni
- c. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish.
- d. mehnat faoliyatiga qo'shish jarayoni, har tomonlama va uyg'un rivojlangan shaxs shakllanishining asosi

Ekologik tarbiya nima?

- a. ekologik ong shakllanishi, ekologik madaniyat tarbiyasi jarayoni
- b. tarbiya jarayonida shakllar, yo'llar, usullar va vositalarning jamuljamligi
- c. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikmalar va xulq-atvorning shakllanish jarayoni
- d. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish

Tarbiya texnologiyasi nima?

- a. tarbiya jarayonida shakllar, yo'llar, usullar va vositalarning jamuljamligi
- b. ekologik ong shakllanishi, ekologik madaniyat tarbiyasi jarayoni
- c. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikmalar va xulq-atvorning shakllanish jarayoni
- d. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish

Hozirgi zamon maktabgacha ta'lim nazariyasini yaratishda qaysi olimning hissasi katta?

- a. Usova
- b. Avloniy
- c. Komenskiy
- d. Pestalotsiy

Sensor tarbiya nima ma'noni biladiradi?

- a. sezgi
- b. tarbiya
- c. o'zgarish
- d. ta'lim

“Ilk qadam” Davlat dasturining oxirgi ilovasi nechanchi ilova hisoblanadi?

- a. 10-ilova
- b. 9-ilova
- c. 8-ilova
- d. 7-ilova

“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi necha bobdan iborat?

- a. VIII bob
- b. IX bob
- c. VII bob
- d. X bob

Axloqiy tarbiya – nima?

- a. xarakterning ahloqiy sifatlari, ko'nikmalar va xulq-atvorning shakllanish jarayoni
- b. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish
- c. mehnat faoliyatiga qo'shish jarayoni, shaxs shakllanishining asosi
- d. huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni shakllantirish

Hissiy (estetik) tarbiyaning maqsadi –

- a. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish
- b. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikmalarning shakllanish jarayoni
- c. mehnat faoliyatiga qo'shish jarayoni, har tomonlama va uyg'un rivojlangan shaxs shakllanishining asosi
- d. huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni shakllantirish

Mehnat tarbiyasi –

- a. mehnat faoliyatiga qo'shish jarayoni, har tomonlama va uyg'un rivojlangan shaxs shakllanishining asosi
- b. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikma va xulq-atvor shakllanish jarayoni
- c. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish
- d. huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni shakllantirish

Huquqiy tarbiya –...

- a. huquqiy ong va huquqiy xulq-atvorni shakllantirish
- b. xarakterning axloqiy sifatlari, ko'nikma va xulq-atvor shakllanish jarayoni
- c. voqelikka estetik munosabatni shakllantirish
- d. mehnat faoliyatiga qo'shish jarayoni, har tomonlama va uyg'un rivojlangan shaxs shakllanishining asosi

“Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

- a. 2019-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son
- b. 2021-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son
- c. 2020-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son
- d. 2018-yil 16-dekabr O‘RQ-595-son

Kundalik bilim deb nimaga aytiladi?

- a. bu sog‘lom fikrga va kundalik amaliy faoliyat shakllariga asoslanuvchi, insonning atrof-muhitga moslashuvi, uning hayotiy harakatlari va oldindan ko‘ra bilish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi bilimlaridir
- b. o‘qitish jarayonida tarbiyalanuvchilar tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zida ifoda etuvchi tushuncha
- c. bu sog‘lom fikr va kundalik amaliy faoliyat shakllarini asoslash.
- d. emperik holatlarni tushuntirish, ya’ni narsa hodisalar mohiyatini bilish imkonini beradigan qonunlarni ochishni ifoda etuvchi malakalar

Abu Nasr Forobiy qaysi asarida komil inson tarbiyaviy sifatlarini ko‘rsatib bergan?

- a. Fozil odamlar shahri
- b. Musiqa haqida katta kitob
- c. Konuni Mas‘uriy
- d. «Metofizika»ga sharh

Mashg‘ulot nima?

- a. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’limni tashkil etishning asosiy shakli
- b. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya berish vositasi
- c. Aniq maqsadga qaratilgan jarayonning mahsuli
- d. Maktabgacha ta’lim tashkilotidagi dars usuli

Mashg‘ulotning asosiy maqsadi nima?

- a. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga har tomonlama bilim berish
- b. Bolalarga bilim berish bilan hayotga tayyorlash
- c. Bolalarni bilim, ko‘nikma, malakalar bilan qurollantirish
- d. Bolalarni maktab ta’limga tayyorlash

Mashg‘ulotlar asosan qaysi vaqtda o‘tkaziladi?

- a. Kunning birinchi yarmida
- b. Ertalab kelish bilan
- c. Tushlikkacha
- d. Kunning ikkinchi yarmida

Mashg‘ulot qanday tuzilishga ega bo‘ladi?

- a. Bolalarni uyushtirish, mashg‘ulotning borishi, asosiy qism, yakunlovchi qism
- b. Tashkiliy qism, mashg‘ulotning borishi
- c. Bolalarni uyushtirish, asosiy va yakuniy qism
- d. Mashg‘ulotning boshlanishi, borishi, yakuni

Ekskursiya nima?

- a. Ta'lim berish shakli
- b. Ta'lim berish metodi
- c. Ta'lim berish usuli
- d. Ta'lim berish vositasi

Ekskursiyadan ko'zlangan maqsad?

- a. Tevarak-atrof, hayot bilan bevosita tanishtirish
- b. Bolalarni ochiq havoda bo'lishini ta'minlash
- c. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayot haqida tasavvurini shakllantirish
- d. Bolalarning tassurotlarini shakllantirish

Ekskursiyada asosan qaysi metoddan foydalaniladi?

- a. Ko'rgazmali va kuzatish
- b. Og'zaki va yozma
- c. Amaliy va anketa
- d. Kuzatish va suhbat

Mashg'ulotlar mazmunini tanlashda qanday hujjatga asoslaniladi?

- a. "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturiga
- b. Maktabgacha ta'lim tashkiloti Nizomiga
- c. Tarbiyaning ish rejasiga
- d. Haftalik mashg'ulotlar jadvaliga

Kichik guruhda mashg'ulotlar qanday o'tiladi?

- a. O'yin tarzida
- b. Ommaviy tarzda
- c. Bolalarni guruhga bo'lgan holda
- d. Tarbiyachi va uslubchi rahbarligida

Bir haftalik mashg'ulotlar jadvali bolalar bog'chasida nima deyiladi?

- a. Mashg'ulotlar setkasi
- b. Mashg'ulotlar jadvali
- c. Haftalik mashg'ulotlar
- d. Mashg'ulot ketma-ketligi

Ta'limni tashkil etishning individual shakli kunning qaysi qismida amalga oshiradi?

- a. Kunning ikkinchi qismida
- b. Kunning birinchi qismida
- c. Kunning uchinchi qismida
- d. Tushlikdan so'ng

Maktabgacha ta'lim tashkilotida keng qo'llaniladigan o'qitish metodlariga nimalar kiradi?

- a. O'yin
- b. Og'zaki
- c. Amaliy
- d. Ko'rgazmali

Zamonaviy didaktikada ta'lim metodlarining eng keng tarqalgan nechta tasnifi mavjud?

- a. 3
- b. 4
- c. 6
- d. 5

Maktabgacha ta'limda o'qitish metodlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- a. Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy
- b. Hikoya, kuzatish, mashq
- c. Suhbat, ko'rgazmali, mashq
- d. Ko'rsatma berish, harakatlar namoyishi, modellashtirish

Ta'limning ko'rgazmali metodi tasnifi to'g'ri berilgan qatorni toping?

- a. Harakatlar namoyishi, namuna ko'rsatish
- b. Ko'rgazmali, sinchkovlik, talabchanlik
- c. Modellashtirish, kuzatish
- d. Suhbat va namuna ko'rsatish

Suhbat metodini o'tkazish jarayonida tarbiyachidan nimalar talab etiladi?

- a. Savol-javob o'tkazish va o'z nuqtai nazarini ifodalashga o'rgatish
- b. Bolalar monologik nutqini o'stirish
- c. Bolalar dialogik nutqini o'stirish
- d. Rasmga qarab hikoya tuzishga o'rgatish

Kuzatish turlari to'g'ri berilgan javobni aniqlang?

- a. Qisqa va uzoq muddatli
- b. Takroriy va qiyosiy
- c. Qisqa va uzoq muddatli
- d. Takroriy va qiyosiy

Mashq, tajriba va modellashtirish qaysi ta'lim metodining turlari hisoblanadi?

- a. Amaliy
- b. Og'zaki
- c. Kuzatish
- d. Suhbat

Sensor tarbiyaning vazifasi nimadan iborat?

- a. Perseptiv harakatlarni, sensor etalonlar sistemasini shakllantirish ulardan amaliy faoliyatda foydalanish
- b. Perseptiv harakatlarni shakllantirish va amalda qo'llash shakllantirish ulardan amaliy faoliyatda foydalanish
- c. Hissiy bilish qobiliyatini takomillashtirish, sensor etalonlar sistemasini shakllantirish ulardan amaliy faoliyatda foydalanish
- d. Sezgini rivojlantirish, sensor etalonlar sistemasini shakllantirish ulardan amaliy faoliyatda foydalanish

Sensor so'zi ma'nolarni anglatadi?

- a. Lotincha "sensus" – tuyg'u, sezgi, idrok, sezish qobiliyati ma'nolarini anglatadi
- b. Maktabgacha yoshdagi bolalar tuyg'usi degan ma'noni anglatadi
- c. Bolalarni his qilish, sezish va rivojlantirish degan ma'nolari anglatadi
- d. Yunoncha "sensus" – qulaylik degan ma'no anglatadi

Ijodiy o'yinlarga qanday o'yinlar kiradi?

- a. Syujetli, rolli, sahnalashtirilgan, qurish yasash
- b. Didaktik va kompyuterli o'yinlar
- c. Sport va harakatli o'yinlar
- d. Harakatli va chiniqtiruvchi o'yinlar

Qoidali o'yin turlarini ayting?

- a. Didaktik, harakatli va musiqali-didaktik o'yinlar
- b. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan va sahnalashtirilgan o'yinlar
- c. Qurilish materiallari bilan o'ynaladigan va rolli o'yinlar
- d. Sahnalashtirilgan va kompyuterli o'yinlar

Qaysi o'yin turida bolalar o'yin qoidalarini o'zlari o'yin jarayonida belgilashadi?

- a. Ijodiy o'yinlar
- b. Qoidali o'yinlar
- c. Sahnalashtirilgan o'yinlar
- d. Qurish-yasash o'yinlari

Didaktik o'yinlarni tashkil etishda bolalarning qanday xususiyatlarini hisobga olish lozim?

- a. Yosh va individual
- b. Ijodiy qobiliyat va intellekt
- c. Bilim va malakalar
- d. Individual va ijodiy qobiliyatlar

Bolalarning qurilish, buyum yasash o‘yinlari qanday o‘yinlarning tarkibiy qismi hisoblanadi?

- a. Rollarga bo‘linib o‘ynaladigan
- b. Ijodiy yondashib o‘ynaladigan
- c. Didaktik qoidalarga amal qilib o‘ynaladigan
- d. Sahnalashtirilib o‘ynaladigan

Qurilish materiallari bilan o‘tkaziladigan o‘yinlar qanday vositalar yordamida o‘ynaladi?
